Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tilida aksiologik mavzudagi evfemizmlar lingvistik va pragmatik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda evfemizmlarning qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog‘liqligi, ularning ma’naviy, diniy, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni ifodalashdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, Tohir Malikning “Iblis devori” asari misolida aksiologik mazmundagi evfemik birliklar kontekstual jihatdan tahlil qilinib, ularning insoniy munosabatlarni yumshatish, axloqiy me’yorlarni saqlash va milliy mentalitetni aks ettirishdagi vazifalari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari evfemizmlarning nafaqat til hodisasi, balki jamiyatning qadriyatlar tizimini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy birlik ekanligini ko‘rsatadi.

Tayanch so‘zlar: evfemizm, aksiologiya, qadriyat, ma’naviy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, diniy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, badiiy matn.

ЭВФЕМИЗМЫ АКСIOЛОГИЧЕСКОЙ ТЕМАТИКИ В
УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Шахзода Улугбековна ФАХРИДДИНОВА

shaxzodafahriddinova11@gmail.com

Аннотация

В данной статье эвфемизмы аксиологической тематики в узбекском языке анализируются с лингвистической и прагматической точек зрения. В исследовании освещается тесная связь эвфемизмов с системой ценностей, а также их роль в выражении духовных, религиозных, национальных и общечеловеческих ценностей. Кроме того, на примере произведения “Iblis devori” анализируются эвфемические единицы аксиологического содержания в контекстуальном аспекте, раскрываются их функции в смягчении человеческих взаимоотношений, сохранении нравственных норм и отражении национального менталитета. Результаты исследования показывают, что эвфемизмы являются не только языковым явлением, но и важной лингвокультурной единицей, отражающей систему ценностей общества.

Ключевые слова: эвфемизм, аксиология, ценность, духовные ценности, национальные ценности, религиозные ценности, общечеловеческие ценности, художественный текст.

Kirish. Evfemizm yunoncha *euphemismos* – “yaxshi so‘zlash” ma’nosini anglatib, so‘zlashuv jarayonida noo‘rin, dag‘al, qo‘pol yoki salbiy ma’noga ega bo‘lgan leksik birliklar va frazeologizmlarni yumshatilgan, muloyimroq shakllarda



ifodalash hisoblanadi. [1; 29-b.] Evfemizmlar orqali jamiyatda tabu hisoblangan mavzular, nozik masalalar yoki noxush hodisalar yumshatilgan tarzda ifodalanadi, bu esa suhbatdoshlar o'rtasidagi muloqotning oson kechishiga ko'maklashadi.

Aksiologiya atamasi yunon tilidan kelib chiqqan bo'lib, *axio* — “qadriyat”, *logos* esa “ta’limot” yoki “so‘z” ma’nolarini anglatadi. Demak, aksiologiya qadriyatlar haqidagi ta’limot sifatida tushuniladi. [5; 3-8-b.] I. T. Frolov aksiologiya qadriyatlarning mohiyati va tabiatini falsafiy jihatdan o'rganadigan soha sifatida izohlagan. Uning fikriga ko'ra har qanday bilim ortida insoniy qadriyatlar turadi. Bilish jarayoni aksiologik xarakterga ega: ilmda axloqiy qadriyatlar bor, ijtimoiy qadriyatlar bor va insonparvarlik prinsiplari bor. [2; 59-60-b.]

Evfemizmlar tilshunoslikning ko'plab yo'nalishlarida, jumladan, semantika, pragmatika va sotsiolingvistika doirasida chuqur tadqiq etilgan. Xorijiy tilshunoslardan K. Allan, K. Buridge, S. Ullmann, P. Brown, S. Levinson, D. Cameron kabi yetuk olimlar evfemizmlarni turli jihatdan o'rgananganlar. O'zbek tilshunosligida esa A. Hojiev, Sh. Rahmatullaev, A. Omonturdiyev kabi olimlar evfemizmlarning o'zbek tilidagi xususiyatlari, ularning shakllanishi va qo'llanilish doirasini atroflicha tahlil etganlar. Aksiologiya mavzusi ham o'zbek tilshunoslari orasida keng tadqiq qilingan bo'lib, B. Xusanov, B. Norbekova o'z ilmiy ishlarida aksiologiya yo'nalishini ijtimoiy-psixologik, milliy va estetik tarbiya nuqtai nazaridan tadqiq etadilar.

R. W. Holderning ta'kidlashicha, evfemizmlar noqulay, nozik hamda jamiyatda bevosita tilga olinishi nojoiz hisoblangan mavzularni yumshoqroq ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. U o'z tadqiqotida ingliz tilidagi ko'plab evfemistik birliklarni to'plab, ularni tematik jihatdan tasniflagan. Olimning fikriga ko'ra, evfemizmlar asosan o'lim, kasallik, inson tanasi, jinsiy munosabatlar, moliyaviy holat va ijtimoiy maqom bilan bog'liq sohalarda keng qo'llaniladi. [3; 6-8-b.]

Sh. Mardonov o'z kitobida aksiologiyani 4 ta kategoriyaga bo'lib chiqqan. Ulardan biri qadriyatlar kategoriyasiga yuzlanadigan bo'lsak, bu kategorianing o'zi 7 ta guruhga ajratilgan: moddiy qadriyatlar, ma'naviy qadriyatlar, siyosiy-huquqiy qadriyatlar, diniy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar va badiiy qadriyatlar. Yozuvchining fikriga ko'ra aksiologiyada eng katta qadriyat – insonning o'zi va ta'lim hisoblanadi. Chunki ta'lim orqali qadriyatlar avloddan-avlodga o'tadi. [5; 27-32 –b.]

Quyidagi tadqiqotda yuqorida bayon etilgan ilmiy-nazariy qarashlar Tohir Malikning “Iblis devori” asari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida asarda qo'llanilgan aksiologik evfemizmlar o'rganilib, ularning ma'naviy, diniy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liqligi ochib beriladi.

Tahlil davomida asardagi evfemik birliklar qadriyatlarni ifodalash, insoniy munosabatlarni yumshatish hamda muayyan ijtimoiy-madaniy me'yorlarni saqlashga xizmat qilishi kuzatiladi. Shu bois aksiologik evfemizmlarning mohiyatini to'liq anglash uchun ularni matn ichida, aniq kontekst asosida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotda “Iblis devori” qissasidan olingan misollar



asosida aksiologik evfemizmlar qiyosiy tahlil qilinib, ularning qadriyatlar tizimidagi o'rnini yoritiladi.

Aksiologik evfemizmlarning tahliliga keladigan bo'lsak, "Iblis devori" asaridagi *Agar Obodxonning fe'li bunchalar bo'lmasa, aka-singillik tuyg'usidan voz kechishga ehtimolki ko'nardi* [4; 38-b.] gapida yozuvchi to'y qilib uylanish degan fikrni to'g'ridan-to'g'ri ifodalamasdan, ma'noni ancha yumshatgan holda yetqazgan. Avvalambor o'zbek xalqi uchun to'y qilish va undan keyin ikki yosh birga hayot kechirishi ham diniy ham milliy qadriyat hisoblanadi. Bundan tashqari o'zbek xalqi uchun uyat, diyonat kabi tushunchalar ham qadriyatining bir qismiga aylangan bo'lib, gapda yozuvchi uylangan bo'lardim jumlasini o'rniga ancha yumshatilgan muqobil variantidan foydalangan. Bu misoldan tashqari yana bir qancha to'y mavzusiga aloqador aksiologik evfemizmlarni asarda uchratishimiz mumkin. *Bo'yi yetgan qizlar olamiga endi qadam qo'ygan, sevgi-muhabbat haqida mubham tushunchaga ega bo'lgan Oynisa amakivachchasini opasidan qizg'ana boshlagan edi* [4; 95-b.] gapida turmush qurishga tayyor, erga tegish yoshiga yetgan qiz ma'nosida kelgan *bo'yi yetgan qiz* jumlasini shuni anglatadiki, o'zbek qizlari uchun erga tegish jarayoni uyatli bo'lib, bu ham ularning milliy qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Keyingi misolda *Sen-chi... oying uzataman, desalar darrov ko'nib qo'yaver* [4; 42-b.] gapidagi aksiologik evfemizm *uzataman* so'zi bo'lib, asl ma'nosi biror narsani berish degani, ammo bu yerda erga bermoq, to'y qilmoq ma'nosini ifodalaydi va bu yana bir bor to'y bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlarimizning qanchalar nozik hamda uyatli mavzu hisoblanishi va doim boshqa muqobil so'zlar bilan bu mavzu haqida gapirishimizga isbot bo'la oladi.

Keyingi keltirilgan misollar diniy qadriyatlarga asoslangan evfemizmlar bo'lib, misollar "Iblis devori" qissasidan olingan. Diniy qadriyatlarda ayrim hodisalarga alohida ehtirom bilan qaraladi. Ayniqsa, o'lim, kasallik hamda taqdir bilan bog'liq bo'lgan qiyin vaziyatlarda o'zbek xalqi ko'proq sabr qilish va taqdiriga rozi bo'lish qadriyatlarga asoslanib yondashadi. *O'z xohishimizcha ketishimiz mumkin, lekn ketmaymiz* [4; 43-b.], gapida inson o'zini o'ldirishi haqida gap ketyapti, ya'ni inson hayotidagi qiyinchiliklardan qiynalgan payti o'zini o'ldirib qutulishi mumkin, ammo uning diniy qadriyatlari va e'tiqodi mustahkamligi sababli bu ishni qilmasligini aytib o'tadi. *"Ikki og'lim, ikki qanotim bor", deb umid bilan yashayotgan onaning so'nggi yo'lga ketayotganida qanotlarisiz qolishiga chidash mumkinmi?* [4; 59-b.], *Foniy dunyoning azob-u tashvishlaridan qutulib bunda yotganlarning oromini buzmaslik uchun shabada ham oralamaydi* [4; 3-b.], *Shavkat o'shanda uzoq qarilikning hisobini olib qo'ygan edi yu, biroq, umrining qisqa bo'lishi, bir yil ichida er-xotinning dunyoni tashlab ketishi mumkinligini o'ylamagandi* [4; 19-b.] gaplariga e'tibor beradigan bo'lsak, o'lim so'zini yozuvchi so'ngi yo'l, dunyoni tashlab ketish, o'lishni azoblardan qutulish ekanligini va bu dunyo shunchaki o'tkinchi ekanligini evfemik ifodalar orqali aytib o'tgan, dinimizga ko'ra bu dunyo sinovli dunyo va insoning oxirgi yo'li o'lim hisoblanadi. Keyingi misol *Taqdir, onasi... bizning mukofotimiz shu ekan...* [4; 3-b.] gapidagi aksiologik evfemizm *mukofotimiz* so'zi bo'lib, qahramon bu dunyo qiyinchiliklarini taqdirdan ekanligi va uni boricha qabul qilib sabr qilishi hamda shu qiyinchilik



ularga sinov tariqasida berilganligi uchun ishlatmoqda. Sabr bizning diniy hamda milliy qadriyatimiz hisoblanadi.

Oxirgi tahlil umuminsoniy qadriyatlar guruhiga kiruvchi aksiologik evfemizmlardir. Bunday qadriyatlar barcha jamiyatlarda mavjud bo'lib, inson qadriyatini saqlash asosida ishlatiladi. *Uningcha odamni moddiy tomondan yetishmovchilik o'g'irlikka undardi* [4; 54-b.] gapida insonni kambag'al deb atamasdan ancha yumshatib, hurmat asosida ifodalagan. Keying misolda *Aslida ona farzandlarini, ayniqsa eridan yodgor qora ko'zlarini birini ikkinchisidan afzal ko'rmaydi* [4; 60-b.] gapida yetim bolalar emas balki qora ko'zlar evfemistik ifodadan foydalanilgan. Insonni shaxsiyatiga yoki qalbiga og'ir botmasligi uchun yetim so'zi to'g'ridan-to'g'ri ishlatililmaydi va bu o'zbek xalqi uchun qadriyat hisoblanadi. *Onasining qusurlarini birovning og'zidan eshitish esa unga og'ir, juda og'ir* [4; 97-b.] gapida qahramon o'z onasiga nisbatan hurmati baland bo'lganligi sababli, qilgan yomonishlarini yushoqroq tarzda ifodalagan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi aksiologik evfemizmlar nafaqat fikrni tinglovchiga chroyli yetqazish, balki xalqning qadriyatlarini ifodalovchi birlik ham hisoblanadi. Ular orqali ma'naviy, diniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar hurmat asosida ifodalanadi. Tohir Malikning Iblis devori asarida tahlil qilingan evfemik birliklar insoniy munosabatlarni hurmat asosida ifodalash, axloqiy me'yorlarni saqlash hamda milliy mentalitetni namoyon etishda muhim pragmatik vazifa bajaradi. Ayniqsa, to'y, o'lim, taqdir, yetimlik va insonning shaxsiy kamchiliklari bilan bog'liq holatlarda evfemizmlarning qo'llanishi xalqning estetik va axloqiy qarashlari bilan chambarchas bog'liq ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, aksiologik evfemizmlarni badiiy matnda o'rganish ularning semantik va pragmatik xususiyatlarini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. Kelgusida bu yo'nalishda o'zbek va ingliz tillaridagi aksiologik evfemizmlarni qiyosiy tadqiq etish til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yanada kengroq yoritishga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Allan K., Burrige K. Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2007. – 303 b.
2. Frolov I.T., Yudin B.G. Etika nauki: problemy i diskussii (Наука этикаси: муаммолар ва мунозаралар). – Moskva: Izd-vo politicheskoy literatury, 1986. – 398 b.
3. Holder R. W. How Not to Say What You Mean: A Dictionary of Euphemisms. – New York: Oxford University Press, 2002. – 501 b.
4. Malik T. Iblis Devori. – Toshkent: Sharq, 2006. – 135 b.
5. Mardonov Sh.Q. Pedagogik aksiologiya (o'quv qo'llanma). – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. – 184 b.



THE IMPORTANCE OF A FORMAL TYPOLOGY OF CATEGORIZATION AND ANALYZING ITS MAIN PROBLEMS

Farhodova Shahzoda Umid qizi

An English teacher at Samarkand
State Institute of Foreign Languages
farhodova.shahzoda@mail.ru

Abstract: This article aims to give a data of the connection between linguistic typology and formal grammar, a long-standing relationship that will likely continue for many more years. The reader will notice that the two orientations have various differences, but they both have control over language, which highlights the importance of communication between them. Even more important is the fact that the field of linguistics is now exploring language as a dynamic system working on various levels of representation, rather than viewing it as separate levels of analysis (lexicon, phonology, syntax), or as distinct linguistic phenomena. The growing integration of linguistics with other disciplines studying human cognition and consciousness poses a common challenge for theory construction and typology.

Key words: *typology, dynamic system, core constituents, voice alternations, word order, relative clauses, tense, aspect and mood, and gender and number, nominative-accusative languages*

The ability to identify commonalities or shared characteristics among the components of one's experience of the world (i.e., objects, events, or ideas) is known as categorization. Experience is then arranged and categorized by assigning it to a more abstract group (i.e., a category, class, or type) based on its common characteristics. Since categorization is regarded as one of the most fundamental cognitive functions, cognitive linguistics and psychology have focused especially on studying it.

The classification of objects is frequently thought of by categorization theorists as utilizing taxonomies with three hierarchical degrees of abstraction. A *plant* could be recognized, for instance, at a low level of abstraction by further identifying this specific rose as a dog rose, at a low level of abstraction by simply naming it as a flower, or at a medium degree of abstraction by stating that the flower is a rose. In a taxonomy, categories are connected to one another by class inclusion, where the most inclusive level of abstraction is found at the highest level and the least inclusive level is found at the lowest level of abstraction.

There are a number of issues that lend themselves to typological examination: marking of core constituents, voice alternations, word order, relative clauses, tense, aspect and mood, and gender and number. Other issues would be worth looking at, but there is not enough typological literature: adpositions, conditional clauses etc.



Core constituents: subjects and objects are present in most languages. The most proactive participant in an event is typically the one who becomes the subject, therefore it is not random. Nominative-accusative languages have different marking schemes for objects and for transitive and intransitive subjects. While transitive subjects are marked differently in ergative-absolutive languages, intransitive subjects are marked similarly to transitive objects. Both patterns are used in some languages, and their distribution is not random: in tense/aspect-based split systems, the ergative pattern appears in the past tense or perfective; in animacy-based split systems, on the other hand, the ergative pattern appears among the less "animate" entities.

Voice alternations: we examined antipassives, which are a means of intransitivizing clauses without changing the subject, as well as passives, which elevate objects to subject status and degrade subjects to oblique roles. These voices are frequently motivated by similar pragmatic justifications.

Word order is a challenging field. However, there are some trends: heavy constituents usually appear later in the clause; objects are frequently placed immediately after the verb; subjects typically come before objects because subjects are the constituents from whose perspective you view an event; and to some extent, cross-categorial harmony may be able to explain some word order patterns.

Various tactics for relative clauses, including gapping, relative pronouns, and retaining pronouns are examined. There are varying levels of explicitness among these, ranging from gapping being the least explicit to pronoun retention being the most explicit. The more implicit a strategy is, the more likely it will be used for certain subjects, while the more explicit a strategy is, the more likely it will be used for functions that are not easily accessible, like prepositional objects. Languages with relative clauses where only subjects can be heads often have intricate voice systems that enable oblique constituents to be promoted to subject status.

Tense, aspect, mood: it is attempted to provide a summary of absolute tense, relative tense, perfective and imperfective aspect, perfect aspect, and deontic and epistemic modality. It's challenging to find universal rules in this area, so

Various methods for assigning gender, which can be semantic, morphological, or phonological; typically, there is some degree of semantic gender assignment in the morphological and phonological approaches as well are examined. In terms of number, it is demonstrated that marking numbers, particularly for dual, may not be required, and that number marking is intertwined with the animacy hierarchy. Some aspects of universals have become clear in recent weeks. In some languages, constructions that are not allowed in one may be rare in another; for example, passives for stative verbs may be prohibited in some languages but exist in others. Large language samples are crucial for typological research, which can also aid in studying individual languages by identifying common patterns to assist in problem-solving. The scope of typology is broader than what I have shown. I have confined the course to synchronous syntax and somewhat to morphology, but you can also explore phonology and pragmatics from a typological standpoint. Furthermore, typology holds significant value in studies that span across different



time periods. For instance, when you redesign a language's audio setup, the patterns you create can have a significant impact.

Overall, it is striking and somewhat disconcerting how much particular orientations in modern linguistics differ with respect to what constitutes “proper” data and what does not. Depending on orientation, it may be acceptable or unacceptable to use only naturalistic data, only discourse data, or only minimal pairs and grammaticality judgments. An interesting consequence of different approaches to data lies in the way the relevant data are elicited. Much has been written about typologists’ extreme reliance on descriptive grammars, some of which may be too brief or inexplicit.

The list of used literature:

1. Anderson, Stephen R. A formalist's reading of some functionalist work in syntax. Amsterdam: John Benjamins. 1999. P. 111-135.
2. Buranov J. Osnovnie etapi razvitiya lingvisticheskoy tipologii. TashGU.– №653. – Tashkent, 1981a. – P. 3-9.
3. Comrie, Bernard. Language universals and linguistic typology. Sprachtypologie und Universalienforschung 46: 1993. P. 3-14.
4. Polinsky, Maria, and Robert Kluender. Linguistic typology and theory construction: Common challenges ahead. To appear in Language. 2006. P. 45-57.
5. Abdirakhimovna M. Z. et al. The Importance of Using Games in Teaching English to Primary Classes. – 2023.
6. Saimova N., Farhodova S. MODERN APPROACHES FOR DEVELOPING LANGUAGE SKILLS IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING //Asian journal of scientific research and innovations. – 2026. – T. 1. – №. 2. – С. 414-418.
7. Xasanova M., Farhodova S. PRACTICAL STRATEGIES FOR DEVELOPING LANGUAGE SKILLS //Asian journal of scientific research and innovations. – 2026. – T. 1. – №. 2. – С. 355-358.



TRANSLATION OF LITERARY WORKS: RELATIONS BETWEEN TRANSLATION AND TRANSLATOR

Abduraimova Mehriniso Murodjon qizi

*Teacher at UzSWLU, II faculty
department of English language teaching methodology
murodjonovna21ma@gmail.com*

Abstract: This article explores the nature of translation and the translator's role in literary contexts. Translation is not merely the replacement of words from one language into another; it is a complex process that bridges cultures, values, and worldviews. The paper outlines different definitions of translation given by scholars such as Bell, Newmark, Nord, and Bassnett, emphasizing its dual function as both communication and art. It distinguishes between informative and literary translation, highlighting the unique challenges of the latter. Literary translation requires creativity, cultural sensitivity, and mastery of stylistic devices. The article also discusses three main translation methods—literal, logical, and artistic—and illustrates their application with examples. Ultimately, literary translation is presented as an art form that demands both linguistic skill and creative talent from the translator.

Key words: translation, literary translation, translator's role, culture, equivalence, translation methods, creativity

Translation and the process of translating are concepts with diverse definitions and perspectives. Specialists from different fields evaluate translation according to their worldview and its relevance to their work. For those without academic knowledge, translation may seem like a simple act of changing words from one language into another. Linguists, however, interpret translation scientifically, while some scholars view it as a form of creative art. Bell (1991) defines translation as “turning a text written in one language into an equivalent text in another language, preserving meaning and linguistic features.” Newmark (1991) describes it as “filling gaps between languages,” Nord (1997) as “comparing cultures,” and Bassnett (2002) as “a bridge between source and target cultures.” These varied definitions show that translation is far from a simple process.

Bassnett and Oittinen describe translation as “rereading and rewriting” (Makinen, 2010). Bassnett also emphasizes that “the translator is first a reader, interpreting the text” (G'ofurov, 2012). Nida and Bell highlight that translation aims to create the closest equivalent in meaning and style in the target language.

Translation is not simply a linguistic tool that allows speakers of different languages to understand one another. Rather, it is a process of interaction between cultures, people, worldviews, and values. Translation is not just the replacement of words from one language into another; it is a communicative act that occurs within



a social context. Whether oral (simultaneous) or literary, translation depends greatly on the translator's role, knowledge, and professional competence.

It is important to note that different types of translation serve different purposes. One type aims to deliver meaning briefly and clearly, while the other seeks to preserve the natural literary features of the text and provide the reader with aesthetic enjoyment. Thus, translation can be divided into two categories according to its communicative purpose and stylistic features: informative translation and literary translation.

The goal of informative translation is to present factual, non-literary texts in a clear and understandable way for the reader. Examples include official documents, scientific and technical literature, and political texts. Literary translation, on the other hand, is distinguished by its complexity, challenges, and the high demands placed on the translator. Its primary aim is to convey the literary qualities of the original work, offering readers aesthetic pleasure while maintaining the integrity of the author's style and cultural context.

Literary translation involves two stages: writer–translator and translator–reader. First, the translator must understand the author's intentions, themes, and characters. This requires reading the text multiple times and analyzing its pragmatic goals. Only then can the translator deliver a faithful and literary version. The second stage concerns the audience. For example, children's literature requires simpler language and shorter sentences. J.K. Rowling's *Harry Potter* series illustrates how language complexity grows with the readers' age, making translation more challenging in later volumes.

In translating literary works, three main methods are generally used:

1. Literal translation
2. Logical translation
3. Literary translation

Literal translation may appear perfect and structurally identical to the source text, giving the impression that no meaning has been lost. However, this method often focuses on dictionary meanings of words rather than their contextual usage. Words may carry new or idiomatic meanings within a text, and literal translation can distort the intended message. This is especially true in English, where many words are polysemous. For example, the sentence “*girls were playing house*” might be translated literally as “*qizlar uyda o‘ynayotgan edilar.*” Yet the correct meaning is “*qizlar xola-xola o‘ynayotgan edilar,*” since “house” here refers to a children's role-play game. Dictionaries do not always provide all possible meanings, so translators must consult multiple sources and carefully compare meanings in context to avoid narrow or incorrect interpretations.

Logical translation, by contrast, focuses on the overall idea of the source text. It does not rely strictly on syntactic structures as literal translation does. Instead, it allows for lexical, semantic, and syntactic changes to ensure clarity and preserve meaning. Logical translation aims to convey not only the ideas but also the emotions expressed in the original text.



Literary translation requires more than linguistic skill; it demands creativity. Source and target texts often belong to different cultural traditions, and the translator must bridge these differences responsibly. Literary works may contain culturally specific words, idioms, and customs. For example, the Uzbek word *beshtik* is usually translated as “cradle.” However, this translation does not fully capture its cultural significance. In Central Asia, the *beshtik* is not merely a baby’s bed but a symbol of heritage, rituals, and lullabies passed down through generations. In such cases, the translator should provide additional explanation to make the meaning clear to readers from other cultures.

Every literary translation reflects the translator’s skill and individuality. The translator’s task is to use all available techniques to produce a faithful yet literary version of the text. Even the best translations involve changes, omissions, or additions, but the degree of these variations indicates the quality of the work. Literary translation is an art that requires creativity, linguistic mastery, and cultural awareness. Translators act as bridges between writers and readers, connecting world literatures and cultures.

References

1. Bassnett, S. (2002). *Translation studies* (Original work published 1980). London: Routledge.
2. Bell, R. T. (1991). *Translation and translating: Theory and practice*. London: Longman.
3. Bush, P. (2006). The writer of translations. In S. Bassnett & P. Bush (Eds.), *The translator as writer* (pp. 23–32). London: Continuum.
4. Newmark, P. (1991). *About translation*. Clevedon: Multilingual Matters.
5. Nord, C. (1997). *Translating as a purposeful activity: Functionalist approaches explained*. Manchester: St. Jerome.
6. Makinen, K. (2010). *Harry Potter and the challenges of translation* (Master’s thesis). University of Jyväskylä.
7. G’ofurov, I., & others. (2012). *Tarjima nazariyasi*. Toshkent: Tafakkur-Bo’stoni.



TRANSLATION OF IDIOMS AND PROVERBS ADAPTED TO THE MAGICAL WORLD IN HARRY POTTER

Abduraimova Mehriniso Murodjon qizi

*Teacher at UzSWLU, II faculty
department of English language teaching methodology
murodjonovna21ma@gmail.com*

Abstract: This paper examines the translation of idioms and proverbs adapted to the wizarding world in J.K. Rowling's *Harry Potter*. Such expressions, rooted in cultural traditions, are reshaped to fit the magical context, creating challenges for translators. The study analyzes strategies of equivalence, adaptation, and creative reformulation, highlighting how meaning and stylistic effect are preserved across languages. Findings suggest that successful translation requires sensitivity to both linguistic nuance and the fantasy setting. By exploring selected examples, the research demonstrates how idioms and proverbs enrich the narrative and influence cross-cultural reception of the text.

Key words: translation; idioms; proverbs; adaptation; cultural equivalence; fantasy literature

Regardless of the genre in which a literary work is written, each text contains concepts specific to the author and the culture of the language. To express events and characters in a colorful and distinctive way, writers often rely on proverbs and everyday expressions. Proverbs are short, concise, and meaningful sayings based on the life experience and wisdom of a people. They reflect social, political, moral, aesthetic, and philosophical views, encapsulating elements of the culture and lifestyle from which they originate.

J.K. Rowling made extensive use of idioms from English dialects and folk traditions when shaping the language of her characters in the *Harry Potter* series. In particular, she modified common proverbs and expressions to build the culture of the magical world. For example, instead of the ordinary phrase “send me a message,” wizards say “send me an owl.” Such expressions are derived from real-life idioms and proverbs but transformed into the magical context of the story. This creative adaptation enhances the appeal of the text for readers of all ages, allowing them to enjoy familiar sayings presented in entirely new and imaginative forms.

As mentioned earlier, many expressions in the novel are based on idioms used by “Muggles” (ordinary people in English). Examples include: *Cat among Pixies*, *Erumpent in the room*, *I could eat a Hippogriff*, and *Look like one saw a Dementor*.

The phrase *Cat among Pixies* comes from the English idiom *cat among pigeons*, which means “to cause trouble or disturb the peace.” In the magical world, “Pixies” are small blue creatures, so the idea of a cat among them suggests disruption. In Uzbek, this can be translated as *tashvishning o‘chog‘i* (“the source of trouble”), because a literal translation like *mushuk kaptarlar orasida* would not



convey the intended meaning. In Uzbek, *tashvishning o'chog'i* refers to someone who constantly creates problems and disturbs others.

By contrast, expressions such as *don't count our owls before they are delivered* or *look like one saw a Dementor* are easier to translate. Uzbek has similar idioms: *jo 'jani kuzda sanaymiz* (“we count chicks in autumn”) and *arvoh ko 'rgandek oqarmoq* (“to turn pale as if seeing a ghost”). Therefore, they can be translated as *boyqushlaringni manzilga yetgandan keyin sana* (“count your owls after they arrive”) and *dementor ko 'rgandek oqarib ketgan* (“turned pale as if seeing a Dementor”). In the story, Dementors are frightening, ghost-like creatures wrapped in black cloaks. Using them in idioms ensures that the meaning is clear and consistent with the magical world, while still resembling familiar expressions from everyday language.

One interesting feature of the expressions in the novel is that the author adapts well-known idioms, used across many cultures, to fit the magical world. For example: *Time is Galleons* (the wizard currency) comes from *Time is money*; *working like house-elves* is adapted from *working like a slave*; and *to have a hairy heart* reflects the idea of *to have a heart of stone*.

The phrase *working like slaves* is changed to *working like house-elves* to match the magical context. Both expressions describe exhausting, unpaid labor. In the story, house-elves are considered the property of wizard families and must obey their masters without question. Because their fate is similar to that of slaves, replacing “slave” with “house-elf” is appropriate. Hermione, who grew up in the non-magical (Muggle) world where slavery has long been abolished, is shocked by this comparison. For instance, when Ron compares their schoolwork to the labor of house-elves, Hermione reacts angrily:

“We've been working like house-elves here!” (Quldek ishlayapmiz—Uy elflaridek ishlayapmiz) Hermione raised her eyebrows. “It's just an expression,” Ron said quickly.

Throughout the novel, not only everyday idioms but also proverbs are adapted to the wizarding world. Examples include *where there is a will, there is a way* and *it is no good crying over spilt milk*. These familiar sayings are reshaped to fit the magical setting, making the language of the story both recognizable and imaginative for readers.

In preparing for the Triwizard Tournament, Harry reads a book titled “*Where there is a wand, there is a way*” and falls asleep over it. This phrase is adapted from the well-known proverb *Where there is a will, there is a way*. In the original, “will” means desire or determination. Rowling replaces it with “wand,” the wizard's essential tool. The proverb first appeared in Michael Scott's 1836 work *The Bee's Journey*. Its meaning is that with enough determination, anyone can achieve their goal, no matter how difficult.

By substituting “wand” for “will,” the author emphasizes how strongly wizards depend on their wands. Without them, they are powerless. With the right wand and spell, they can accomplish almost anything. Thus, both desire and the wand are shown as crucial factors in solving problems. In Uzbek, the equivalent



proverb is *Xohish bo'lsa, imkon topiladi* (“If there is desire, there is opportunity”). In the magical context, it can be translated as *Tayoqcha bo'lsa, imkon topiladi* (“If there is a wand, there is opportunity”), which makes sense for readers.

When proverbs or idioms appear in the original text, they may be expressed differently in translation—sometimes replaced with other expressions or explained in detail. What matters most is not the exact wording but that the meaning is conveyed correctly. This is one of the challenges that makes the translator’s work complex. In translating such expressions, translators often rely on equivalents, alternative phrases, or calques (direct borrowings).

Representing expressions from one culture in terms familiar to another requires not only theoretical and practical knowledge but also awareness of both cultures, their customs, worldviews, and ways of life. The translator and the translation act as a bridge between cultures. As Edward Sapir noted, people in different societies perceive the world in unique ways. The translator, therefore, frees the text from the chains of one language and gives it new life in another. In this process, the translator becomes not only an interpreter but also a co-author alongside the original writer.

References:

1. Rowling J.K. Harry Potter and the Order of Phoenix. – London: Bloomsbury Publishing Plc, 2013.
2. Rowling J.K. Harry Potter and the Chamber of Secrets. – London: Bloomsbury Publishing Plc, 2013.
3. Rowling J.K. Harry Potter and the Prisoner of Azkaban. – London: Bloomsbury Publishing Plc, 2013
4. Rowling J.K. Harry Potter and the Goblet of Fire. – London: Bloomsbury Publishing Plc, 2013.
5. Oxford Advanced Learner’s Dictionary, Fifth edition, Oxford University Press, 1996.1428 p
6. Oxford Word power Dictionary for learners of English, Third edition, Oxford University Press, 2002.794 p.
7. <http://www.hp-lexicon.org>
8. <https://books.google.co.uz/>



ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

IQTISODIY MATNLAR KORPUSINI YARATISHDA MOLIYA-IQTISOD
TERMINLARINING O'RNI

Abdurahmanova Sayyora Bozorboy qizi

TDIU ijtimoiy va aniq fanlar kafedrasi o'qituvchisi PhD

sayyoraabdurahman@gmail.com

Ikramov Akobir Axadxon o'g'li

TDIU Menejment yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqtisodiy matnlar korpusini shakllantirishda moliya-iqtisod terminlarining ahamiyati, ularni korpus tarkibiga kiritish tamoyillari hamda terminologik birliklarning lingvistik va statistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy korpus lingvistikasi iqtisodiyot sohasidagi matnlarni tizimli ravishda yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, moliya-iqtisod terminlari korpusning semantik aniqligi va amaliy qiymatini oshiruvchi asosiy elementlardan biri hisoblanadi.


Kalit so'zlar: korpus lingvistikasi, iqtisodiy korpus, moliya terminlari, iqtisodiy terminologiya, tabiiy tilni qayta ishlash, semantik annotatsiya, terminologik baza, iqtisodiy diskurs.

Kirish

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida turli fan sohalarida elektron matn bazalarini yaratish va ulardan foydalanish ehtiyoji ortib bormoqda. Korpus lingvistikasi til birliklarini katta hajmdagi matnlar asosida o'rganish imkoniyatini yaratadigan zamonaviy yo'nalishlardan biridir. Bugungi kunda milliy korpuslar, ilmiy korpuslar, huquqiy korpuslar va iqtisodiy korpuslar yaratish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy matnlar korpusi iqtisodiyot, moliya, bank ishi, soliq tizimi, investitsiya va biznes faoliyatiga oid matnlar majmuasini o'z ichiga oladi. Bunday korpusning sifatli shakllanishi ko'p jihatdan unda qo'llanilgan terminologik birliklarning to'g'ri tanlanishi va tavsiflanishiga bog'liq. Ayniqsa, moliya-iqtisod terminlari iqtisodiy diskursning asosiy semantik yadrosini tashkil etadi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:



Tahlil materiali sifatida iqtisodiyot, moliya, bank ishi va investitsiyalar sohasiga oid ilmiy maqolalar, darsliklar, normativ-huquqiy hujjatlar, iqtisodiy yangiliklar va rasmiy hisobotlar tanlab olindi. Iqtisodiy matnlar korpusi muayyan soha tilining real qo‘llanish holatini aks ettiruvchi elektron ma’lumotlar bazasidir. Mazkur korpus quyidagi xususiyatlarga ega:

Terminologik zichlikning yuqoriligi, rasmiy va ilmiy uslub birliklarining ustunligi, xalqaro terminlarning keng qo‘llanishi, statistik va raqamli ma’lumotlarning ko‘pligi, soha bo‘yicha ixtisoslashgan leksik birliklarning mavjudligi.

Iqtisodiy korpuslarda uchraydigan terminlar mazmunan aniq va standartlashgan bo‘lib, iqtisodiy tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan: inflyatsiya, investitsiya, aktiv, passiv, likvidlik, dividend, kapital, kredit, depozit, fiskal siyosat, monetar siyosat kabi birliklar iqtisodiy matnlarning asosiy komponentlari hisoblanadi. Moliya-iqtisod terminlari korpusning semantik tuzilishini shakllantiruvchi asosiy birliklardir. Ularning korpusdagi o‘rni quyidagi jihatlar bilan belgilanadi:

Iqtisodiy korpus yaratish jarayonida dastlab terminologik baza ishlab chiqiladi. Ushbu baza iqtisodiyot va moliya sohalariga oid terminlarning standart ro‘yxatini o‘z ichiga oladi. Terminologik baza korpusning izchilligi va aniqligini ta’minlaydi.

Terminlar korpusda maxsus teglar orqali belgilanishi mumkin. Masalan:

BANK TERM	TAX TERM	INVEST TERM	ACCOUNT TERM
-----------	----------	-------------	--------------

Bunday annotatsiya keyinchalik avtomatik qidiruv va tahlil jarayonlarini soddalashtiradi. Korpus asosida terminlarning qo‘llanish chastotasi aniqlanadi. Chastota tahlili iqtisodiy diskursda eng faol terminlarni aniqlash imkonini beradi.

Masalan:

Termin	Uchrashish chastotasi
Investitsiya	3450
Kapital	2980
Kredit	2875
Soliq	2560



Mazkur ko‘rsatkichlar iqtisodiy matnlarda qaysi tushunchalar markaziy o‘rin tutishini aniqlashga yordam beradi.

Korpus yaratish jarayonida bir xil tushunchani ifodalovchi variantlar tartibga solinadi. Masalan:

investor – sarmoyador;

kreditlash – kredit berish;

investitsiya – sarmoya kiritish.

Bu esa iqtisodiy terminologiyaning yagona standartini shakllantirishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda iqtisodiy korpuslar sun‘iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalarida muhim resurs hisoblanadi. Moliya-iqtisod terminlari:

-avtomatik tarjima tizimlari;

-iqtisodiy chatbotlar;

-ma‘lumotlarni avtomatik tahlil qilish tizimlari;

-iqtisodiy prognozlash platformalari;

-intellektual qidiruv tizimlari uchun zarur lingvistik baza vazifasini bajaradi.

Ayniqsa, o‘zbek tilidagi iqtisodiy korpuslarni yaratish iqtisodiyotga oid sun‘iy intellekt tizimlarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. O‘zbek tilida iqtisodiy korpuslarni yaratish hali dastlabki bosqichda bo‘lib, quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur: iqtisodiy terminlarning elektron lug‘atini yaratish, bank va moliya hujjatlari korpusini shakllantirish, iqtisodiy matnlarning semantik annotatsiyasini ishlab chiqish, iqtisodiy terminlarning ko‘p tilli bazasini yaratish, iqtisodiy korpuslarni sun‘iy intellekt platformalariga integratsiya qilish. Bu vazifalar iqtisodiy tilning raqamli resurslarini boyitishga hamda ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy matnlar korpusini yaratishda moliya-iqtisod terminlari markaziy o‘rin egallaydi. Ular korpusning semantik yaxlitligini ta‘minlaydi, terminologik bazani shakllantiradi va avtomatik tahlil jarayonlarining samaradorligini oshiradi. Moliya-iqtisod terminlarini tizimli ravishda yig‘ish, tasniflash va annotatsiyalash iqtisodiy korpuslarning ilmiy hamda amaliy ahamiyatini sezilarli darajada oshiradi. Kelajakda o‘zbek tilidagi iqtisodiy korpuslarni rivojlantirish iqtisodiyot sohasida sun‘iy intellekt texnologiyalarini yaratish va takomillashtirish uchun muhim zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zakirov U., Qodirova M. Korpus lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akadernashr, 2023. – 256 b.

2. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 312 b.

3. McEnery T., Hardie A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2019. – 294 p.

4. Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. – Oxford: Oxford University Press, 2018. – 179 p.

5. Bowker L., Pearson J. Working with Specialized Language. – London: Routledge, 2020. – 242 p.



6. Худойберганов А. О‘zbek iqtisodiy terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishi // О‘zbek tili va adabiyoti. – 2024. – №3. – В. 78–86.



LOYIHA BOSHQARUVIDA MODDIY RAG'BATLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Pulatov Shaxron Axmedovich -
Samarqand davlat arxitektura-qurilish
universiteti, "Biznesni boshqarish" kafedrası
tadqiqotchisi

Annotasiya. Loyiha boshqaruv konsepsiyasining keng rivojlanishi tashkilotlarda motivlashtirishning nazariy va amaliy masalalarini qayta ko'rib chiqish zaruratini vujudga keltiradi. Ma'lumki qurilish tashkilotlarida motivlashtirishning asosiy manbasi bo'lib moddiy rag'batlantirish jamg'armasi xizmat qiladi. Shu munosabat bilan moddiy rag'batlantirish jamg'armasini shakllantirish va uni taqsimlash jiddiy masala hisoblanadi. Maqolada loyiha jamoasining vakolatlarini kengaytirish va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: moddiy rag'batlantirish, loyiha boshqaruvi, loyiha jamoasi.

Аннотация. Широкое распространение концепции управления проектами обуславливает необходимость пересмотра теоретических и практических вопросов мотивации в организациях. Известно, что основным источником мотивации в строительных организациях является фонд материального поощрения. В этой связи формирование фонда материального поощрения и его распределение представляют собой серьезную проблему. В статье обосновываются предложения по расширению полномочий проектной команды и совершенствованию системы поощрения.

Ключевые слова: финансовые стимулы, управление проектом, проектная команда.

Abstract. The widespread adoption of project management concepts necessitates a reconsideration of theoretical and practical aspects of motivation in organizations. It is well known that the primary source of motivation in construction organizations is the incentive fund. Therefore, the formation and distribution of the incentive fund pose a serious challenge. This article substantiates proposals for expanding the authority of the project team and improving the incentive system.

Key words: financial incentives, project management, project team.

Mamlakatimizda qurilish sohasini isloh qilish jarayonla jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda. Ayniqsa, qurilishda boshqaruvning tartib-taomillarini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy qilish, boshqaruv funksiyalarini zamonaviylashtirishga e'tibor berilmoqda [1,2]. Hususan, investision-qurilish jarayonlarida loyiha boshqaruvga e'tibor qaratiladi.

Loyiha boshqaruvining konseptual jihatlari va uning qurilishda qo'llanishiga ko'plab olimlarning tadqiqotlari bag'ishlangan [3,4,5,6]. Shu bilan birga, konsepsiya qator elementlardan tarkib topgan. Loyiha boshqaruvining qurilish tashkilotlarida



joriy qilinishi va ommalashtirilishi yuqorida ko'rsatib o'tilgan boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari bilan bir qatorda boshqaruv funksiyalarining mazmunan o'zgarishi hamda kengaytirilishi lozim deb hisoblaymiz. Rejalashtirish, tashkil qilish va nazorat funksiyalari har qanday konsepsiyada o'z mohiyati va ahamiyatini yo'qotmaydi. Xuddi shunday loyiha boshqaruviga asoslangan qurilish tashkilotlarida ushbu funksiyalar to'la hajmda bajarilishi va ushbu talabga mos tashkiliy tamoyillarga rioya qilinishi talab etiladi. Shu bilan birga tashkilotlarning hamda uning tarkibidagi bo'linmalar va mas'ul xodimlarning motivlashtirish manbalari, tamoyillari va vositalarining o'zgarishini tan olish lozim. Ushbu holatning sabablariga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) Mansabdor shaxslarning loyihalarni boshqarish tizimidagi o'rni va ishtirok etish darajasi. Ta'kidlaganimizdek, an'anaviy va loyiha boshqaruvida rahbarlarning vazifalari bir muncha farq qiladi, ya'ni qarorlarni qabul qilish xodimlarning faoliyatiga ta'sir qilishi hamda nazorat doirasi qayta taqsimlanadi bu esa moddiy va ma'naviy rag'batlantirishning ijtimoiy-psixologik mazmuniga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

b) Loyiha jamoalarida mehnatning hajmi, murakkabligi va intensivligini o'zgarishi. Loyiha jamoasi degan atamaning o'zi kundalik faoliyat davomida jamoa a'zolari o'rtasida vazifalarning o'zgarib borishini ko'zda tutadi. Masalan, loyiha menejeri (ish boshqaruvchi) jamoadagi boshqa a'zolarga (iqtisodchi, sifat nazoratchisi, ishni tashkil qiluvchi va h.k.) o'rtasida o'z vakolatlarini uzatishi yoki vaziyatdan kelib chiqqan holda ularning vazifalarini bajarib borishi odatiy hol bo'ladi. Bunday gorizontol yo'naltirilgan tuzilmaga xos bo'lgan holat xodimlar tomonidan mehnatni baholash mezonlariga alohida e'tibor qaratadi.


v) Loyiha jamoasi hamda qurilish tashkilotining funksional rahbarlari o'rtasida vakolatlarining qayta taqsimlanishi boshqaruv mehnatini motivlashtirish mexanizmlariga o'zgartirishlar kiritadi. Masalan, qurilish tashkilotidagi mashina va mexanizmlarning holatiga javobgar bosh mexanik bir necha loyiha jamoasi bilan munosabatda bo'lgan holda tashkiliy-ma'muriy hamda iqtisodiy rag'batlantirish muammosiga duch kelishi mumkin. Birinchidan ushbu xodim tashkilotda tutgan o'rning noto'g'ri baholanishidan norozilik bildirishi mumkin. Ikkinchidan loyiha menejerlarining ehtiyojlarini qondirishda ma'lum nizoli vaziyatlarga duch kelishi mumkin.

g) Iyerarxik tashkiliy munosabatlarning gorizontol yo'naltirilgan munosabatlarga o'tishi. Qurilish tashkilotlarining boshqaruv tizimida qarorlar qabul qilish, axborot oqimlarini boshqarish hamda tashkiliy-ma'muriy ta'sirlarini o'tkazish mexanizmlariga ta'sir ko'rsatadi.

Qurilish tashkilotlarida loyiha boshqaruvining joriy qilinishi motivlashtirish funksiyasining transformasiya qilishini taqazo qiladi. Motivlashtirish funksiyasining eng muhim jihati ushbu faoliyatida vakolatga ega bo'lgan subyektlarni aniqlashtirishdir. Ushbu belgi bo'yicha loyiha boshqaruvida yakka tartibdagi motivlashtirish huquqi tashkilot rahbaridan loyiha jamoasi yoki loyiha oqimi rahbariga o'tadi. Shu bilan birga tashkilotning xo'jalik faoliyati natijalari bo'yicha motivlashtirish tashkilot rahbari vakolat doirasida qoladi.



Jamoaviy motivlashtirish rag'batlantirish tamoyillarini va tartibini ko'pchilik ovoz bilan yoki konsensus asosida qabul qilingan me'yorlar hujjatlarda namoyon bo'ladi. Motivlashtirishning ikkinchi tasnifiy belgisi uning kimga qaratilganligiga asoslanadi. Bunda ijobiy tomonga yo'naltirilgan barcha harakatlar tashkilot miqyosida, loyihalar oqimi miqyosida, loyiha jamoasi miqyosida hamda mas'ul xodimlarga qaratilgan bo'lishi mumkin. E'tiborli jihati shundaki ushbu belgi bo'yicha yaratilgan me'yoriy-huquqiy ichki hujjatlar alohida loyihalarni boshqarish natijalariga bog'liq bo'ladi.



1-rasm. Loyiha boshqaruvi tashkilotlarida moddiy motivlashtirish manbalari¹³

Qurilish tashkilotlarida asosiy iqtisodiy samara qurilish obyektlarida vujudga keladi, ya'ni resurslarni tejash, xarajatlarni boshqarish, sifatni boshqarish hamda qurilish muddatini qisqartirish natijasida ma'lum mablag'lar shakllanadi va ular umumiy holda rag'batlantirish fondini tashkil qiladi. Taklif qilinayotgan tartib bo'yicha olinadigan samaraning 20 foizi mablag' shakllangan joyida, ya'ni obyekt qurilishi uchun mas'ul bo'lgan loyiha jamoasi ixtiyorida qoldiriladi, chunki aynan jamoa barcha resurslarni tejashga manfaatdor bo'lishi lozim. Buning ikkinchi jihati shundaki, jamoa a'zolari tejamkor va samarali mehnatning mevasini ko'rish lozim.

Rag'batlantirish fondining ikkinchi manbasi bo'lib loyiha oqimlarida paydo bo'ladigan tejamkorlikning sinergik samarasidir. Nazariy izlanishlar va amaliy

¹³ Muallif tomonidan tuzilgan



tajribalar shuni ko'rsatdiki, bir necha obyektlardan iborat loyiha oqimlarida qo'shimcha tejamkorlik nuqtalari paydo bo'ladi, ya'ni oqim tarkibidagi loyiha jamoalarining birgalikdagi faoliyati boshqa xarajatlarning 10-15 foizigacha tejashga imkon beradi. Istiqbolda hududiy qurilish majmuasida loyiha boshqaruvining joriy etilishi uchun ushbu motivlashtirish mexanizmlarining ahamiyati oshib boradi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 26 apreldagi "O'zbekiston Respublikasida loyiha boshqaruvi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5120-son Farmoni, Lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 16 apreldagi "Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5392-son Farmoni, Lex.uz
3. Grey, K.F. Upravleniye proyektami: Prakticheskoye rukovodstvo / F-Grey Klifford, Erik U. Larson // Per s angl. - M.: Izdatelstvo «Delo i Ser- vis», 2003. - 528 s.
4. Djalilova S.F. Sovershenstvovaniye form i metodov upravleniya investionnymi proyektami v stroitelstve. Avtoreferat. dis. ... kand. ekon. nauk. – Makhachkala, 2014. – 27 s.
5. Isaqova Z.M. Loyiha boshqaruvi tizimlarini joriy etish: tavsifi va innovasion iqtisodiyotda amalga oshirish shartlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2019 yil. – 110-115 b.;
6. Fomenko N.M., Safonov F.D. Proyektnoye upravleniye i upravleniye proyektami: opyt, otlichiya, tendensii i perspektivy razvitiya // Liderstvo i menedjment № 3. 2024. – S. 1216-1231.



DAVLAT KORXONALARINI KORPORATIV BOSHQARISHDA FOYDANI MAKSIMAL DARAJADA OSHIRISH MODELIDAN BARQAROR QIYMAT YARATISH MODELIGA O'TISH

Jumadullaeva Durdona Shuhrat qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Ushbu tezisda davlat korxonalari (DK) uchun an'anaviy foydani maksimal darajada oshiradigan korporativ boshqaruv modelining cheklovlari ko'rib chiqiladi. Bunday korxonalarining o'ziga xos xususiyati davlatning egasi va regulyator sifatidagi ikki tomonlama roli, ijtimoiy majburiyatlarning mavjudligi, bozor intizomining pasayishi va oshkoralik talablarining ortishi bilan belgilanadi, deb ta'kidlanadi. Agentlik nazariyasi, manfaatdor tomonlar yondashuvi va xalqaro korporativ boshqaruv tamoyillari tahlili asosida barqaror qiymat yaratish modeliga o'tish taklif etiladi. Ushbu modelda ESG ko'rsatkichlari tashqi hisobot elementi sifatida emas, balki strategik boshqaruv, KPI tizimi, boshqaruv rag'batlari va kuzatuv kengashi faoliyatini baholashning bir qismi sifatida ko'rib chiqiladi. Muallifning yondashuvi moliyaviy ko'rsatkichlar, jamoat manfaatlari va DKlarning uzoq muddatli barqarorligini muvofiqlashtirishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: korporativ boshqaruv, DKlar, ESG, barqaror qiymat yaratish, agentlik mojarosi, davlat mulki, strategik KPilar, kuzatuv kengashi.

Kirish

Davlat korxonalarida (DK) korporativ boshqaruvni xususiy aksiyadorlik jamiyatlariga qo'llaniladigan mezonlar bilan baholab bo'lmaydi. Xususiy kompaniya kapital daromadliligi, biznes qiymatining o'sishi va aksiyadorlarning qoniqishiga ko'proq e'tibor qaratadi. Davlat korxonasi boshqa doirada ishlaydi: u moliyaviy daromadlarni ta'minlashi, sanoat barqarorligini saqlashi, davlat dasturlarida ishtirok etishi va ijtimoiy funksiyasini saqlab qolishi kerak.

Bu ikkilanish an'anaviy korporativ boshqaruv modelini metodologik jihatdan to'liqsiz qiladi. Agar kompaniyaning faoliyati faqat foyda, kapital daromadliligi yoki dividend to'lovlari bilan o'lchanadigan bo'lsa, shaffoflik, jamoatchilik oldida javobgarlik, nazorat sifati, ijtimoiy ta'sir va uzoq muddatli xavflar baholanmaydi. DK uchun bu elementlar ikkinchi darajali emas. Ular biznes barqarorligini va davlat, investorlar, kreditorlar va jamiyatning ishonchini belgilaydi.

Ushbu maqolaning maqsadi davlat korxonalarining korporativ boshqaruvida foydani maksimal darajada oshirish modelidan barqaror qiymat yaratish modeliga o'tish uchun nazariy asos yaratishdir. Ushbu maqsad quyidagi vazifalarni hal qiladi: an'anaviy modelning cheklovlarini aniqlash, davlat korxonalarida agentlik munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini namoyish etish, ESG ko'rsatkichlarining strategik boshqaruv vositasi sifatidagi rolini asoslash va barqaror qiymat yaratishga o'tish uchun kontseptual asosni taklif qilish.



Tadqiqotning nazariy asosi M. Jensen va W. Mecklingning agentlik nazariyasiga, R. Freemanning manfaatdor tomonlar yondashuviga, A. Shleifer va R. Vishning korporativ boshqaruv va investorlarni himoya qilish bo'yicha tadqiqotlariga va OECDning korporativ boshqaruv tamoyillariga asoslangan.

Maqolaning metodologik asosi qiyosiy tahlil, institutsional tahlil, tizimli yondashuv va kontseptual modellashtirishni o'z ichiga oladi. Qiyosiy tahlil an'anaviy foydani maksimallashtirish modeli va taklif qilingan barqaror qiymat yaratish modelini taqqoslash uchun ishlatiladi. Institutsional tahlil davlatning ham egasi, ham regulyator sifatidagi ikki tomonlama rolini ochib berish uchun qo'llaniladi. Tizimli yondashuv bizga korporativ boshqaruvni o'zaro bog'liq elementlar to'plami sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Bularga mulkchilik, kuzatuv kengashi, boshqaruv, axborotni oshkor qilish, ESG ko'rsatkichlari va hisobdorlik mexanizmlari kiradi.

Tadqiqot korporativ boshqaruv bo'yicha akademik maqolalar, OECD hujjatlari, ESG hisobotlariga xalqaro yondashuvlar va davlat korxonalarida milliy korporativ boshqaruv amaliyotlariga asoslangan.

Maqolada muallifning o'z tahliliy tizimi qo'llaniladi. Birinchidan, an'anaviy modelning cheklovlari aniqlanadi, keyin davlat korxonalarining o'ziga xos xususiyatlari o'rganiladi va nihoyat, barqaror qiymat yaratish modeliga o'tishning asoslari keltirilgan.

An'anaviy korporativ boshqaruv modeli kompaniyaning asosiy maqsadi foydani maksimal darajada oshirish va aksiyadorlar qiymatini oshirish ekanligini taxmin qiladi. Asosiy samaradorlik ko'rsatkichlariga sof foyda, ROE, ROA, dividendlar, bozor kapitallashuvi va aksiya narxining o'sishi kiradi. Ushbu baholash tizimi xususiy biznes uchun tushunarli, chunki egasi kapital qo'yadi va moliyaviy daromadni kutadi.

Davlat korxonalarini uchun bu model to'liq emasligi isbotlangan. Uning cheklovlari bir necha jihatdan namoyon bo'ladi.

Birinchi cheklov maqsadlarning ko'pligi bilan bog'liq. Davlat korxonasi davlat dasturlarini amalga oshirishda ishtirok etishi, bandlikni saqlab qolishi, xizmatlarning mavjudligini ta'minlashi, ustuvor sohalarni moliyalashtirishi yoki ijtimoiy majburiyatlarni bajarishi mumkin. Bu maqsadlar har doim ham to'g'ridan-to'g'ri tijorat samarasini beravermaydi, lekin ular iqtisodiyot va jamiyat uchun muhimdir.

Ikkinchi cheklov javobgarlikning xiralashishi bilan bog'liq. Xususiy kompaniyada javobgarlik aksiyadorlar, direktorlar kengashi va rahbariyat o'rtasida taqsimlanadi. Davlat korxonasida tuzilma murakkabroq: davlat agentligi, kuzatuv kengashi, ijro etuvchi organ, sanoat regulyatori va jamoatchilik kutganlari. Natijada, moliyaviy ko'rsatkich har doim ham boshqaruv muammosining aniq joylashuvini ko'rsatmaydi. Uchinchi cheklov - bu bozor intizomining zaifligi. Davlat korxonalarini ko'pincha qo'llab-quvvatlash, kafolatlar yoki ma'muriy resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega. Bu bozor bosimini kamaytiradi va shaffoflikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va boshqaruv sifatini yaxshilashga bo'lgan rag'batlarni susaytiradi.



Klassik agentlik nazariyasi mulkdor va menejer o'rtasidagi mojaroni o'rganadi. Davlat korxonalarida bu mojaro yanada murakkab shaklga ega bo'ladi.

Birinchi darajadagi mojaro davlat mulkdor va boshqaruv o'rtasida yuzaga keladi. Davlat, aktsiyador sifatida, davlat aktivlarini saqlash va ulardan samarali foydalanishdan manfaatdor. Menejment o'z manfaatlariga, qarorlarni rasmiy ravishda amalga oshirishga yoki qisqa muddatli natijalarga e'tibor qaratishi mumkin.

Ikkinchi darajadagi ziddiyat davlat regulyator sifatida va jamiyat yakuniy foyda oluvchi sifatida o'rtasida yuzaga keladi. Davlat korxonadan foyda va dividendlar kutishi mumkin. Biroq, u bir vaqtning o'zida undan bandlikni qo'llab-quvvatlash, imtiyozli kreditlash, infratuzilmani rivojlantirish yoki muayyan sohalarni barqarorlashtirish kabi ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun foydalanishi mumkin.

Bu ikkilik korporativ boshqaruv tizimini murakkablashtiradi. Xususi kompaniyada korporativ boshqaruv asosan aktsiyadorlar manfaatlarini himoya qilish va boshqaruv harakatlarini nazorat qilishga qaratilgan.

Davlat korxonasida manfaatlar doirasi kengroq. Bu yerda davlat, boshqaruv, investorlar va jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muhimdir.

ESG strategik boshqaruv elementi sifatida

ESG yondashuvi ekologik, ijtimoiy va boshqaruv parametrlarini rasmiy hisobot doirasidan strategik boshqaruv sohasiga o'tkazish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, davlat korxonalarini uchun muhimdir, chunki ularning ko'pgina funktsiyalari jamoatchilik manfaatlari bilan uzviy bog'liq.

ESG komponenti energiya samaradorligi, yashil moliyalashtirish, ekologik xavflar va tabiiy resurslarga ta'sirni aks ettiradi. Ijtimoiy komponent xizmatlarning mavjudligi, mijozlarni himoya qilish, xodimlarni rivojlantirish, ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni qo'llab-quvvatlash va mintaqaviy rivojlanishga hissa qo'shishni o'z ichiga oladi.

Boshqaruv komponenti shaffoflik, kuzatuv kengashi tarkibi, ichki audit, korrupsiyaga qarshi siyosat, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish va axborotni oshkor qilishni qamrab oladi.

Davlat korxonalarini uchun ESGning boshqaruv komponenti ayniqsa muhimdir. U bunday korxonalar duch keladigan asosiy muammolarni hal qiladi: kuzatuv kengashlarining cheklangan mustaqilligi, shaffoflikning yetarli emasligi, bozor intizomining zaifligi va ma'muriy ta'sir.

Eng muhimi, ESG hisobotining o'zi emas, balki strategik KPI tizimiga ESG ko'rsatkichlarini kiritishdir. Hisobot natijalarni qayd etadi, lekin har doim ham boshqaruv xatti-harakatlarini o'zgartiravermaydi. KPIlar boshqaruv qarorlariga, mas'uliyatni taqsimlashga va motivatsiyaga ta'sir qiladi.

ESGni strategik KPIlarga integratsiya qilish ekologik, ijtimoiy va boshqaruv ko'rsatkichlari boshqaruv va boshqaruv organlarining ish faoliyatini baholashning bir qismiga aylanishini anglatadi.

Barqaror qiymat yaratish modeliga o'tish nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Nazariy nuqtai nazardan, taklif qilingan yondashuv klassik agentlik modelini kengaytiradi. Davlat korxonalarini uchun faqat mulkdor va boshqaruv o'rtasidagi



ziddiyatni tahlil qilish yetarli emas. Davlatning turli rollari: mulkdor, tartibga soluvchi va jamoat manfaatlarining vakili o'rtasidagi ziddiyatni ko'rib chiqish kerak.

Manfaatdor tomonlar yondashuvi agentlik nazariyasini to'ldiradi. Bu kompaniyani faqat aksiyadorlar manfaatlariga bog'lab bo'lmasligini ko'rsatadi. Ushbu tezis, ayniqsa, davlat korxonalarini uchun muhimdir, chunki ularning faoliyati xodimlar, mijozlar, kreditorlar, davlat idoralari, mahalliy jamoalar va jamiyatga ta'sir qiladi.

OECD tamoyillari tahlilning institutsional jihatini mustahkamlaydi. Ular shaffoflik, professional davlat mulki, boshqaruv organlarining hisobdorligi va mulkdor va tartibga soluvchi rollarini ajratish muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu qoidalar ma'muriy nazoratdan davlat aktivlarini strategik boshqarishga o'tish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Amaliy nuqtai nazardan, ESG ko'rsatkichlari ijtimoiy, ekologik va boshqaruv maqsadlarini o'lchab bo'ladigan qiladi. Agar ular deklarativ bo'lib qolsa, ularning boshqaruvga ta'siri cheklangan. Agar ular KPIlarga kiritilsa, ular qaror qabul qilish mexanizmining bir qismiga aylanadi.

Davlat banklari uchun bu model bevosita ta'sirga ega. Banklar nafaqat foyda oladi, balki ustuvor tarmoqlarni moliyalashtirishda, aholini qo'llab-quvvatlashda va davlat dasturlarini amalga oshirishda ham ishtirok etadi. Shuning uchun ularning faoliyati nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlar orqali, balki shaffoflik, korporativ nazorat sifati, axborotni oshkor qilish darajasi, ESG integratsiyasi va investorlarning ishonchi orqali ham baholanishi kerak.

Shu bilan birga, ESG ko'rsatkichlarini KPIlarga kiritish hisobot berishning rasmiy kengaytmasiga aylanmasligi kerak. Bu boshqaruv mantig'ini o'zgartirishni talab qiladi. Kuzatuv kengashi nafaqat moliyaviy natijalarni, balki strategiyaning barqarorligini ham baholashi kerak. Rahbariyat nafaqat foyda uchun, balki axborotni oshkor qilish sifati, ichki nazorat, risklarni boshqarish va ijtimoiy ta'sir uchun ham javobgar bo'lishi kerak.

O'zbekiston sharoitida taklif qilingan yondashuv davlat korxonalarining, ayniqsa bank sektoridagi korporativ boshqaruvini takomillashtirish uchun ishlatilishi mumkin. Bu milliy korporativ boshqaruv islohotlarini xalqaro OECD tamoyillari va ESG kun tartibi bilan bog'lash imkonini beradi, xorijiy modellarni mexanik ravishda nusxa ko'chirmasdan, balki ularni davlat mulkining o'ziga xos xususiyatlariga moslashtiradi.

Taklif etilayotgan yondashuv bir qancha ilmiy va amaliy oqibatlarga olib keladi.

Ilmiy nuqtai nazardan, u davlat korxonalarida korporativ boshqaruvning klassik tushunchasini kengaytiradi. Agentlik mojarosi nafaqat egasi va menejer o'rtasidagi munosabatlar muammosi sifatida, balki davlatning turli institutsional rollaridagi mojarosi sifatida ham qaraladi. Bu past samaradorlik, zaif shaffoflik va davlat korxonalarini faoliyatini baholashdagi qiyinchiliklarning sabablarini aniqroq tushuntirish imkonini beradi.

Metodologik nuqtai nazardan, barqaror qiymat yaratish modeli uchta tadqiqot yo'nalishini birlashtiradi: agentlik nazariyasi, manfaatdor tomonlar



yondashuvi va ESG konsepsiyasi. Ularning integratsiyasi muammolarni tavsiflashdan boshqaruv modelini yaratishga o'tish imkonini beradi.

Amaliy nuqtai nazardan, taklif etilayotgan model moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan ko'rsatkichlar izchil bo'lgan KPI tizimini ishlab chiqish imkonini beradi. Davlat korxonalari uchun bu rasmiy muvofiqlikdan o'lchanadigan natijalarga asoslangan boshqaruvga o'tishni anglatadi. Davlat banklari uchun modelni qo'llash strategik rejalashtirish sifatini yaxshilashi, shaffoflikni oshirishi, kuzatuv kengashlarini kuchaytirishi, agentlik xarajatlarini kamaytirishi va investitsiya jozibadorligini oshirishi mumkin. Shu bilan birga, ESG ko'rsatkichlari yillik hisobotning bezak qismi emas, balki qiymat va barqarorlikni boshqarish vositasiga aylanadi.

Xulosa

An'anaviy foydani maksimal darajada oshirish modeli moliyaviy ko'rsatkichlarni baholash uchun qimmatli bo'lib qolmoqda, ammo u davlat korxonalarida korporativ boshqaruvning murakkabligini to'liq aks ettirmaydi. Davlat mulki manfaatlarining noyob tizimini yaratadi, bu yerda foyda ijtimoiy maqsadlar, tartibga solish funksiyalari va jamoatchilik mas'uliyati bilan birlashtiriladi.

Barqaror qiymat yaratish modeliga o'tish an'anaviy yondashuvning asosiy kamchiligini - moliyaviy ko'rsatkichlarga bir tomonlama e'tiborni bartaraf etadi. Taklif etilayotgan modelda ESG ko'rsatkichlari strategik KPilar, boshqaruvni rag'batlantirish tizimi va kuzatuv kengashining faoliyatini baholashning bir qismiga aylanadi. Bu davlat, menejment, investorlar va jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirish uchun asos yaratadi.

Davlat banklari uchun ushbu model amaliy ahamiyatga ega, chunki u moliyaviy

Adabiyotlar ro'yxati

1. Jensen M.C., Meckling W.H. Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure // Journal of Financial Economics. 1976. Vol. 3. No. 4. P. 305–360. DOI: 10.1016/0304-405X(76)90026-X.
2. Shleifer A., Vishny R.W. A Survey of Corporate Governance // The Journal of Finance. 1997. Vol. 52. No. 2. P. 737–783. DOI: 10.1111/j.1540-6261.1997.tb04820.x.
3. Freeman R.E. Strategic Management: A Stakeholder Approach. Boston: Pitman, 1984. 276 p.
4. OECD. G20/OECD Principles of Corporate Governance 2023. Paris: OECD Publishing, 2023. DOI: 10.1787/ed750b30-en.
5. OECD. OECD Guidelines on Corporate Governance of State-Owned Enterprises 2024. Paris: OECD Publishing, 2024.
6. Tricker B. Corporate Governance: Principles, Policies, and Practices. 3rd ed. Oxford: Oxford University Press, 2015. 550 p.
7. Cadbury A. Report of the Committee on the Financial Aspects of Corporate Governance. London: Gee and Co. Ltd., 1992. 90 p.



8. La Porta R., Lopez-de-Silanes F., Shleifer A., Vishny R. Investor Protection and Corporate Governance // Journal of Financial Economics. 2000. Vol. 58. No. 1–2. P. 3–27. DOI: 10.1016/S0304-405X(00)00065-9.

9. Hart O. Corporate Governance: Some Theory and Implications // The Economic Journal. 1995. Vol. 105. No. 430. P. 678–689. DOI: 10.2307/2235027.

10. Global Reporting Initiative. GRI Standards. Amsterdam: GRI, latest edition.

11. O'zbekiston Respublikasining Korporativ boshqaruv kodeksi. Aksiyadorlik jamiyatlari samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasining 2015-yil 31-dekabrda 9-sonli yig'ilishi bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

12. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi 2014-yil 6-maydagi O'RQ-370-sonli Qonuni.

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-sonli "2021–2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi UP-60-sonli "2022–2026-yillarda yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-oktabrdagi PF-6096-sonli "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish va davlat aktivlarini xususiylashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.



**САНОАТ КОРХОНАЛАРИДА АМАЛГА ОШИРИЛАДИГАН
ИНВЕСТИЦИЯ ЛОЙИҲАЛАРИНИ МОЛИЯВИЙ-ИҚТИСОДИЙ
САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ РИВОЖЛАНГАН
МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИ**

Sariyev Kaхraman Raхmatullaevich

О‘zbekiston Respublikasi

Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va
boshqaruvi akademiyasi mustaqil-tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA: Maqolada sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirishning rivojlangan mamlakatlar tajribasi o‘rganilgan. AQSH, Germaniya mamlakatlarining sanoatning investitsion loyihalarini samarali tashkil etish yoki mavjudlarining barqaror rivojlanishini ta‘minlash mexanizamlari keng yoritilgan va o‘ziga xos xususiyatlarini tahlili amalga oshirilgan. Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asoslanib, sanoat korxonalarining investitsion faoliyatini samarali faoliyat yuritishi uchun taklif va xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *xalqaro standart, investitsiya, loyihalar, moliyaviy-iqtisodiy samaradorlik, energiya tejamkor texnologiyalar, moliyalashtirish, institutsional shakl, vosita, sanoat, eksportbop mahsulotlar, klaster, xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar.*

**ОПЫТ РАЗВИТЫХ СТРАН В ПОВЫШЕНИИ ФИНАНСОВОЙ И
ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ
ПРОЕКТОВ, РЕАЛИЗУЕМЫХ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ
ПРЕДПРИЯТИЯХ**

Сариев Кахраман Рахматуллаевич

Соискатель Академии государственной
политики и управления
при Президенте Республики Узбекистан

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается опыт развитых стран в повышении финансово-экономической эффективности инвестиционных проектов, реализуемых на промышленных предприятиях. Подробно рассматриваются механизмы США и Германии по эффективной организации промышленных инвестиционных проектов или обеспечению стабильного развития существующих, анализируются их специфические особенности. На основе опыта развитых стран предлагаются рекомендации и выводы по эффективной реализации инвестиционной деятельности промышленных предприятий.



Ключевые слова: *международный стандарт, инвестиции, проекты, финансово-экономическая эффективность, энергосберегающие технологии, финансирование, институциональная форма, инструмент, промышленность, экспортная продукция, кластер, поставщики услуг.*

EXPERIENCE OF DEVELOPED COUNTRIES IN INCREASING THE FINANCIAL AND ECONOMIC EFFICIENCY OF INVESTMENT PROJECTS IMPLEMENTED AT INDUSTRIAL ENTERPRISES

Sariev Kakhraman Rahmatullaevich

Independent Researcher at the
Academy of Public Policy and Administration
under the President of the Republic of Uzbekistan

ABSTRACT

This article examines the experience of developed countries in improving the financial and economic efficiency of investment projects implemented at industrial enterprises. It examines in detail the mechanisms of the United States and Germany for effectively organizing industrial investment projects or ensuring the stable development of existing ones, and analyzes their specific features. Based on the experience of developed countries, recommendations and conclusions are offered for the effective implementation of investment activities at industrial enterprises.

Keywords: *international standard, investments, projects, financial and economic efficiency, energy-saving technologies, financing, institutional form, instrument, industry, export products, cluster, service providers.*

Bugungi jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida innovatsiyalarni keng joriy etish va investitsiya loyihalarini bosqichma-bosqich baholashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, investitsiya loyihalari hisob-kitoblarining xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda .

Fikrimizcha, har qanday investitsiya loyihalarining samaradorligi tashqi tomondan mamlakat iqtisodiyotining "rang-barangli"gi, undagi yaratilgan shart-sharoitlar va daromad olish imkoniyatlari, darajasiga hamda barqarorligiga bog'liq bo'lsa, ichki tomondan esa loyihaning mukammalligi, uni optimal tashkil etilishi, aniq hisob-kitoblar asosida har tomonlama, xususan moliyaviy-iqtisodiy jihatdan baholanganligi kabilarga bog'liqdir.

Xorijiy ekspertlarning fikricha investitsiya loyihalarining samaradorligi tarkibiy o'zgarishlar va iqtisodiy institutlarni yaratish orqali ta'minlanadi .

Mazkur islohotlarni jadallashtirish va ularning yuqori samarasini ta'minlashning asosiy yo'llaridan biri bu – sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganish asnosida ulardan samarali foydalanishni tashkil etishdir.



AQSH davlat tomonidan faol qo‘llab-quvvatlanadigan intensiv investitsiya jarayonlariga ega mamlakatlardan biridir. Amerika davlatining investitsiya faoliyatini rivojlantirishdagi rolini baholashda bir qator prinsipial muhim jihatlarga e‘tibor qaratish lozim. Jumladan, innovatsion investitsiya faoliyati samaradorligiga ko‘p jihatdan davlat-xususiy sheriklik salohiyatini ro‘yobga chiqaradigan turli institutsional shakl va vositalar orqali ta‘minlangan turli subyektlarning sa‘y-harakatlarini birlashtirish orqali erishiladi. Ular orasida shtatlar va federal idoralar, universitetlar va sanoat yangi texnologiyalardan foydalanishdagi to‘siqlarni bartaraf etish va an‘anaviy ravishda kamroq davlat tomonidan moliyalashtiriladigan hududlarning texnologik raqobatbardoshligini rag‘batlantirish dasturini amalga oshirilishi diqqatga sazovordir .

Bunda davlat hokimiyat faoliyatining strategik yo‘nalishi ma‘muriy-hududiy tuzilmalarning ijtimoiy-iqtisodiy makonini klasterlash jarayonlarini rag‘batlantirishdan iborat. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, eng jadal rivojlanish innovatsion klasterlar shakllangan hududlarda - korxonalar (sanoat korxonalari, ilmiy markazlar, ilmiy muassasalar), ixtisoslashtirilgan yetkazib beruvchilar, asosiy ishlab chiqaruvchilar va iste‘molchilar tarmoqlarining hududiy konsentratsiyasiga asoslangan davlat organlari majmualarida, ya‘ni texnologik zanjir orqali sodir bo‘ladi .

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, AQSH sanoat siyosatining o‘ziga xos modeli – xususiy kapitalni rivojlantirish va byurokratiyaning keskin kamaytirilganligidir. Ya‘ni, mamlakatda sanoatni rivojlantirish maqsadlari makroiqtisodiy siyosatning elementlari bo‘lib, bunda asosiy e‘tibor sanoat raqobatbardoshligini oshirish, ichki va tashqi tovar bozorlarida o‘rnini mustahkamlash, uni rivojlanishining mutanosibligini oshirish uchun qulay muhitni shakllantirishga qaratilgan.

Shu boisdan, AQSH zaminida sinovdan o‘tgan ko‘plab konseptual yondashuvlar va iqtisodiy vositalar keyinchalik u yoki bu shaklda butun dunyo bo‘ylab keng tarqaldi. Jumladan:

- istiqbolli yuqori texnologiyali loyihalarga sarmoya kiritishda venchur kapital mexanizmidan foydalanish;
- universitetlar va xususiy sanoat kompaniyalari o‘rtasidagi ilmiy-texnikaviy hamkorlikni davlat tomonidan rag‘batlantirish;
- aholidan yangi texnologiyalar transferi sektorini sanoatga yo‘naltirish;
- ilmiy tadqiqotlar uchun soliq imtiyozlaridan foydalanish va hokazo .

AQSH tajribasining yana bir e‘tiborli jihati shundaki, mamlakat sanoat korxonalari, jumladan sanoatning investitsion loyihalarini samarali tashkil etish yoki mavjudlarining barqaror rivojlanishini ta‘minlash uchun katta miqdorda subsidiyalash amaliyoti mavjud.

Halqaro valyuta fondining ma‘lumotlariga ko‘ra , AQSH yarim o‘tkazgichlar ishlab chiqarish sanoati mahsulotlari bo‘yicha Yaponiya va Xitoyga qaramlikni kamaytirishga qaratilgan sa‘y-harakatlarining bir qismi sifatida 57 ta kompaniyalarga ichki investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun 500 million AQSH dollaridan ortiq subsidiyalar ajratgan.



AQSH tajribasining yana bir muhim jihati shundaki, yirik investitsiya loyihalari ishlab chiqarish sanoatiga, xususan kimyo sanoati va transport hamda elektrotexnika uskunalari ishlab chiqarishga qaratiladi. Ya'ni, mazkur sanoat mahsulotlari eksportbop mahsulotlar ekanligi e'tiborga olingan.

Germaniya davlatining sanoat tarmog'idagi investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichini oshirilishi mamlakat sanoat tarmoqlari (korxonalarida) energiya tejamkor texnologiyalardan keng foydalanishga alohida e'tibor qaratilganidir. Ya'ni, energiyani ko'p talab qiladigan sanoat tarmoqlari uchun energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash hamda mazkur tarmoqlarga energiya tejamkor texnologiyalarni jadal joriy etish bo'yicha amaliy choralar ishlab chiqilgan.

Natijada, mamlakatda o'rtacha 1000 yevro qiymatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi uchun 2003 yilda 2,8 GJ (1 GJ = 277,778 kVt/s), 2010 yilda 2,6 GJ, 2019 yilda 2,3 GJ va 2021 yilda 2,6 GJ elektr energiyasi sarflanilgan bo'lsa, 2022 yilda esa shuncha mahsulot ishlab chiqarilishi uchun 2,4 GJ elektr energiyasi sarflanishiga erishilgan¹⁴.

Bu o'z-o'zidan ma'lumki, sanoat korxonalarida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining ishlab chiqarish xarajatlarini kamayishi va mahsulot tannarxining pasayishi hamda narx vositasi asosida mahsulot raqobatbardoshligi ta'minlanadi. Bu esa o'z navbatida korxonalar rentabelligining yuqori bo'lishiga olib keladi.

Bundan tashqari, Germaniya tajribasining yana bir muhim jihati shundaki, sanoat korxonalarining investitsion faoliyatini samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan infratuzilma, xususan xizmat ko'rsatuvchi provayderlar o'rtasida o'zaro hamkorlikning samarali integratsiyasi yo'lga qo'yilgan¹⁵.

Mamlakatda sanoatning to'g'ridan-to'g'ri qo'shilgan qiymatidan tashqari, sanoat va xizmat ko'rsatuvchi provayderlar o'rtasidagi o'zaro xaridlar ham hisobga olinadi. Ushbu tarmoq mazkur mamlakatdagi umumiy iqtisodiy mahsulotlarning 8-9 foizini tashkil qiladi. Bu Yevropaning boshqa yirik iqtisodiyotlariga qaraganda ancha yuqori ko'rsatkich hisoblanadi¹⁶.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Germaniya iqtisodiyotining yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, xususiy sektor tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning asosiy qismi, ya'ni, 85 foizi sanoat tarmoqlari tomonidan amalga oshiriladi. Mamlakatda ilmiy-tadqiqot ishlariga yiliga o'rtacha 106 mlrd. yevro sarfladi, bu mamlakat YAIMning 3 foizidan ortiqdir¹⁷.

Germaniyaning aynan shu amaliyot bilan dunyoda yetakchilik qiladi. Bu borada faqat birgina Yaponiyada ustunlikka ega. Boshqa iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda esa mazkur ko'rsatkich Germaniya ko'rsatkichidan past. Jumladan,

¹⁴ <https://www.statista.com/statistics/1386372/industrial-energy-consumption-and-production-value-germany/>

¹⁵ Grömling M. Makroökonomische Daten zur Messung von Outsourcing, in: AStA – Wirtschafts- und Sozialstatistisches Archiv 2/2010, S. 185–199.

¹⁶ Grömling M. Herausforderungen der Industrie am Standort Deutschland // Bundeszentrale für politische Bildung. CC BY-NC-ND 3.0, 2024.

¹⁷ <https://www.tatsachen-ueber-deutschland.de/ru/globalnyy-torgovyy-partner/promyshlennost-v-germanii>



Fransiyada bu ko'rsatkich yarmiga yaqin, Buyuk Britaniyada esa deyarli 40 foizni tashkil qiladi.

Bu bir tomondan, mamlakatlar iqtisodiyoti tarkibiy tuzilishining farqli jihatlari bilan ifodalansa, boshqa tomondan, bu tarmoqlarda ilmiy-amaliy tadqiqot infratuzilmalaridagi aniq farqlar va avval boshidan rivojlanishning o'ziga xos strategik jihatlari joriy etishdagi muvofaqiyatli xarakatlar bilan izohlash mumkin.

Germaniyaning iqtisodiy rivojlanish strategiyasida eksport alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarning qariyb 80 foizi eksport qilinadi. Ahamiyatli jihati mazkur tovarlarning aksariyati sanoat mahsulotlari bo'lganligidir. Bu borada Germaniyaga faqat Yaponiya va Italiya raqobatchi bo'lishi mumkin.

Shu boisdan ham jahon bozorlarida Germaniya sanoati mahsulotlari alohida o'ringa ega bo'lib, bu mamlakat eksportining 50 foizini tashkil qiladi. Mamlakatda eksport faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilganligi uning investitsion jozibadorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Grömling M. Makroökonomische Daten zur Messung von Outsourcing, in: AStA – Wirtschafts- und Sozialstatistisches Archiv 2/2010, S. 185–199.

2. Grömling M. Herausforderungen der Industrie am Standort Deutschland // Bundeszentrale für politische Bildung. CC BY-NC-ND 3.0, 2024.

3.<https://www.statista.com/statistics/1386372/industrial-energy-consumption-and-production-value-germany/>

4.<https://www.tatsachen-ueber-deutschland.de/ru/globalnyy-torgovyy-partner/promyshlennost-v-germanii>



UY XO‘JALIKLARI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISH VA OSHIRISHDA ASALARICHILIK FAOLIYATINI STATISTIK BAHOLASH USULLARI

Xudayarova Zuxra Yuldashevna

Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

zuxra_xudayarova@tues.uz

Annotatsiya: Maqolada uy xo‘jaliklari daromadlarini shakllantirish va oshirishda asalarichilik faoliyatining o‘rni statistik va ekonometrik usullar asosida baholangan. Asalarichilikning daromad hajmi, barqarorligi va investitsiya samaradorligiga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida uy xo‘jaliklari farovonligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: uy xo‘jaligi, daromad, asalarichilik, asal ishlab chiqarish, statistik tahlil, ekonometrik baholash, regressiya modeli, korrelyatsion tahlil, panel ma’lumotlar, investitsiya samaradorligi.

Zamonaviy uy xo‘jaliklari iqtisodiy faoliyati bir necha maqsadga xizmat qiladi: daromad manbalarini shakllantirish, oilaviy ehtiyojlarni qondirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash. Uy xo‘jaliklari daromadlari ko‘plab manbalardan hosil bo‘ladi: ish haqi, mulkdan daromadlar, ijtimoiy nafaqalar va tadbirkorlik faoliyati. Shu nuqtai nazardan, asalarichilik kichik va o‘rta uy xo‘jaliklari uchun barqaror daromad manbai sifatida katta ahamiyatga ega.

Asalarichilik – bu nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladigan faoliyatdir. Asalarichilik mahsulotlari – asal, propolis, arichona mahsulotlari va boshqa qo‘shimcha mahsulotlar uy xo‘jaliklariga qo‘shimcha daromad keltiradi. Shu sababli, uy xo‘jaliklari daromadlarini oshirishda asalarichilik faoliyatini statistik baholash va samaradorligini tahlil qilish zarurati tug‘iladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – uy xo‘jaliklari daromadlarini oshirishda asalarichilik faoliyatining samaradorligini statistik va ekonometrik usullar orqali baholash. Tadqiqotning vazifalari:

- Uy xo‘jaliklari daromadlarini shakllantirish manbalarini tahlil qilish;
- Asalarichilik faoliyatining daromadga ta’sirini aniqlash;
- Statistik va ekonometrik usullarni qo‘llash orqali daromadni baholash;
- Empirik tadqiqotlar va hududiy misollar asosida tavsiyalar ishlab chiqish.

Uy xo‘jaliklari daromadlari quyidagi asosiy manbalardan shakllanadi:

1. Mehnat daromadlari – ish haqi, qo‘shimcha ishlar va frilanserlik faoliyati.
2. Tadbirkorlik daromadlari – kichik biznes, oilaviy korxonalar va asalarichilik faoliyati.
3. Mulkdan daromadlar – ijara, aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqa moliyaviy vositalardan olinadigan daromad.



4. Ijtimoiy nafaqalar – pensiya, stipendiya va boshqa davlat tomonidan taqdim etiladigan mablag‘lar.

Tadbirkorlik asosidagi daromadlar, xususan asalarichilik, uy xo‘jaliklari moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Asalarichilik faoliyatining samaradorligi bir nechta omillarga bog‘liq: ari boqish maydoni, tajriba, hududiy iqlim, bozordagi talab va moliyaviy resurslar.

Asalarichilik uy xo‘jaliklari daromadlarini oshirishning samarali vositasi sifatida quyidagi foydalarni beradi:

1. Barqaror qo‘shimcha daromad manbai – asal va arixona mahsulotlari savdosi orqali.
2. Mahalliy bozorlarni rivojlantirish – hududiy mahsulotlarni sotish orqali iqtisodiy faollik oshadi.
3. Moliyaviy mustaqillik – uy xo‘jaliklari qo‘shimcha mablag‘ yaratib, boshqa sarmoyalarni amalga oshirishi mumkin.
4. Oziq-ovqat xavfsizligi – asal iste‘moli sog‘liqni saqlash va oziq-ovqat barqarorligini ta‘minlaydi.

Asalarichilik faoliyatini statistik baholash orqali yuqoridagi iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniq o‘lchash mumkin.

Uy xo‘jaliklari daromadlarini oshirishda asalarichilikning statistik baholanishi bir necha jihatdan muhim:

1. Daromad barqarorligini aniqlash – mavsumiylik va ishlab chiqarish hajmini tahlil qilish.
2. Resurs va bozor omillarini baholash – ari boqish uchun zarur moddiy va moliyaviy resurslar.
3. Investitsiya samaradorligini tahlil qilish – sarmoya va olinadigan daromad nisbatini aniqlash.

Statistik baholash uy xo‘jaliklariga moliyaviy qarorlarni qabul qilishda, shuningdek davlat siyosatini shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Asalarichilik faoliyatini baholashda quyidagi usullar qo‘llanadi:

1. Deskriptiv statistika – o‘rtacha daromad, dispersiya, maksimal va minimal daromadlar.
2. Korrelatsion tahlil – ari soni, maydon, xarajat va daromad o‘rtasidagi bog‘liqlik.
3. Regressiya tahlili – daromadni mustaqil o‘zgaruvchilar bilan bog‘lash:
$$Daromad = \beta_0 + \beta_1 Ari_soni + \beta_2 Maydon + \beta_3 Xarajat + \epsilon \quad (1.3.1)$$
4. Vaqt qatorli tahlil – mavsumiy va yillik daromad o‘zgarishini prognozlash.
5. Panel ma‘lumotlar tahlili – bir necha uy xo‘jaliklari bo‘yicha daromadlarni solishtirish.

Uy xo‘jaliklari daromadlarini oshirishdagi asalarichilik samaradorligi quyidagi ko‘rsatkichlar orqali baholanadi:

1. Daromad darajasi – yil davomida olingan sof daromad.
2. Sarmoyaning rentabelligi – sarflangan mablag‘ va olinadigan daromad nisbati.
3. Mehnat samaradorligi – bir ari yoki ishchi tomonidan olinadigan daromad.



4. Mavsumiylik koeffitsienti – yil davomida daromadning o‘zgarishi.

Ushbu indikatorlar yordamida uy xo‘jaliklari faoliyati samaradorligi aniqlanadi va tadbirkorlik strategiyasi ishlab chiqiladi.

Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadi:

- 50 ari bo‘lgan uy xo‘jaligi yil davomida o‘rtacha 18 mln so‘m daromad oladi.
- Mavsumiy o‘zgarishlar bahorda va yozda daromadning 65% ini tashkil qiladi.
- Panel ma‘lumotlar yordamida turli hududlar bo‘yicha daromad farqi aniqlanadi – iqlim, bozordagi talab va resurslar ta‘sir qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 20 mingdan ortiq asalarichilik subyektlari faoliyat yuritadi. Qolaversa, 1,6 million asalari oilalari mavjud. Shuningdek, 2024 yilda 456 mingdan ziyod asalari paketlari eksport kilingan, mahalliy sharoitda asalarichilik naslchilik xo‘jaliklarida 1.5 million donadan ziyod ona ari yetishtirilgan¹⁸. “O‘zbekiston asalarichilari” uyushmasi matbuot xizmati ma‘lumotiga ko‘ra, O‘zbekistonda yiliga 17 ming tonnadan ziyod asal yetishtiriladi. Shundan 10 foizi tog‘ asali, 50-55 foizi paxta asali, 30 foizi cho‘l asali (yantoq, oqquray, isiriq, kavrak, qizilmiya) va 5-10 foizi turli gullar asalidan iborat. O‘zbekistonda asosan may oyining oxiri va iyul oyigacha cho‘l asali, iyun — avgust oylari paxta asali, iyul-sentyabr oylarida tog‘ asali yetishtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Marshall A. Principles of Economics Principles of Economics. – London: Macmillan and Co., 1890. – 754 p.
2. Gujarati D.N. Basic Econometrics Basic Econometrics. – New York: McGraw-Hill Education, 2009. – 922 p.
3. Wooldridge J.M. Introductory Econometrics: A Modern Approach Introductory Econometrics: A Modern Approach. – Boston: Cengage Learning, 2020. – 896 p.
4. Food and Agriculture Organization. Good Beekeeping Practices: Practical Manual on How to Identify and Control the Main Diseases of the Honeybee. – Rome, 2020. – 120 p.
5. World Bank. World Development Report: Agriculture for Development. – Washington, DC, 2008. – 386 p.
6. United Nations. Handbook on Household Surveys. – New York, 2019. – 285 p.
7. State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati bo‘yicha statistik to‘plam. – Toshkent, 2024. – 320 b.
8. O‘zbekiston asalarichilari uyushmasi. O‘zbekistonda asalarichilik tarmog‘ining rivojlanish ko‘rsatkichlari. – Toshkent, 2024. – 85 b.

¹⁸ “O‘zbekiston asalarichilari” uyushmasi matbuot xizmati ma‘lumotlari



O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI MAHSULOTLARI YALPI ISHLAB CHIQRISH HAJMINING STATISTIK TAHLILI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Bebutova Zulayxo Hamidovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Iqtisodiy statistika” kafedrasida mustaqil izlanuvchisi,

elektron pochta: erkin5green7698@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda O‘zbekistonda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari yalpi ishlab chiqarish hajmining statistik tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, tarmoqning iqtisodiyotdagi o‘rni, hududlar kesimidagi rivojlanish xususiyatlari hamda istiqboldagi rivojlanish tendensiyalari yoritilgan.


Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, o‘rmon xo‘jaligi, baliqchilik, yalpi ishlab chiqarish, fermer xo‘jaligi, dehqon xo‘jaligi, statistik tahlil, iqtisodiy samaradorlik.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tarmoq aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash, xomashyo bazasini yaratish hamda eksport salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda agrar sohani modernizatsiya qilish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish hamda ishlab chiqarish hajmlarini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.[1]

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari yalpi ishlab chiqarish hajmi sohada yaratilgan barcha mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymatini ifodalaydi. Ushbu ko‘rsatkich tarkibiga dehqonchilik, chorvachilik, o‘rmonchilik, baliq ovlash va akvakultura faoliyati natijalari kiradi. Mazkur ko‘rsatkich tarmoq rivojlanish darajasini baholashda muhim statistik indikator sifatida xizmat qiladi.

Bizga ma‘lumki, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo‘jaligida, o‘rmonchilik va yog‘och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo‘jaliklarida, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Xususan, Toshkent viloyati bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha statistik ma‘lumotlar asosida tahlil qilamiz.



Toshkent viloyati statistika boshqarmasining 2021-2025-yillar bo'yicha ma'lumotlari .¹⁹

2025- yil shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Yangiyo'l (538,0 mlrd so'm), O'rta Chirchiq (497,5 mlrd so'm) va Zangiota (517,3 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Yangiyo'l (9,1 mlrd so'm), Ohangaron (15,9 mlrd so'm) va Nurafshon (11,1 mlrd so'm) shaharlarini keltirib o'tish mumkin. Yuqori o'sish sur'atlari Yangiyo'l (112,3 %), Yuqori Chirchiq (111,6 %), Qibray (105,6 %) va Quyi Chirchiq (104,4 %) tumanlarida kuzatildi. Piskent tumani (28,9 %), Bekobod tumani (100,3 %) va Yangiyo'l shahrida (101,0 %) esa aksincha o'zgarish sur'atlari nisbatan pastligi kuzatildi.

2025- yil qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 94,5 % i - dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 4,4 % i – o'rmon xo'jaligi, 1,1 % i baliqchilik xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.

Natijada shuni aytish mumkinki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sishida fermer, dehqon va tomorqa xo'jaliklarining hissasi katta. Ayniqsa, chorvachilik mahsulotlari yetishtirishda dehqon xo'jaliklari asosiy ishlab chiqaruvchi sifatida faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, intensiv ishlab chiqarish usullaridan foydalanish hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining kengaytirilishi tarmoq rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kelgusida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari sifatida resurslardan samarali foydalanish, mahsulot yetishtirish hajmini oshirish, eksportbop mahsulotlar ulushini ko'paytirish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa tarmoqning raqobatbardoshligini oshirish va mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

¹⁹ Toshkent viloyati statistika boshqarmasining 2021-2025-yillar bo'yicha ma'lumotlari



Xulosa qilib shuni ayta olamizki, o‘tkazilgan statistik tahlil natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi barqaror o‘shish tendensiyasiga ega. Tarmoqning samarali rivojlanishi oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, aholi bandligini oshirish va iqtisodiyotning barqaror o‘shishiga muhim hissa qo‘shadi.

Adabiyotlar

1. Toshkent viloyati statistika boshqarmasining 2021-2025-yillar bo‘yicha ma‘lumotlari . <https://www.toshvilstat.uz/>
2. N. M. Soatov, N.G‘. Nabiyev, A.H. Ayubjonov. Amaliy statistika. Darslik. Toshkent-2020 yil.[1]
3. Fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (xizmat)larning statistik tahlili/ Moliyaviy texnologiyalar ilmiy elektron jurnali/3-son/ <http://fintech.tfi.uz/> [1]
Kalit so'zlar: davlat xizmatlari, global tendentsiyalar, raqamli transformatsiya, xavfsizlik, yo'l xaritasi, ekotizim, kompozit xizmatlar, proaktiv xizmatlar, sun'iy intellekt, samaradorlik.

INTERNATIONAL EXPERIENCE IN PUBLIC SERVICE DELIVERY IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION NURITDINOVA DILSHODAKHON A. - Independent Researcher at the Academy of Public Policy and Administration under the President of the Republic of Uzbekistan

ABSTRACT

The article examines international experience in the provision of public services amidst digital transformation. Global trends in public services are outlined, and the process of adapting international practices in Uzbekistan is analyzed.



Proposals are developed for implementing international experience regarding the digital transformation of public services.

Keywords: public services, global trends, digital transformation, security, roadmap, ecosystem, composite services, proactive services, artificial intelligence, efficiency.

Современные мировые подходы к государственным услугам вышли далеко за рамки простой оцифровки бланков. Сегодня ведущие цифровые правительства переходят к концепции сквозной экосистемы (Digital Public Infrastructure), управлению на основе данных и массовому внедрению ИИ-агентов. Мировые тренды ключевых направлений государственных услуг включают в себя Агентный искусственный интеллект (Agentic AI). Это автономное ведение дел: ИИ переходит от ответов в чат-ботах к самостоятельному выполнению задач: ИИ-агенты проверяют нормативные комплаенсы, сопоставляют налоговую отчетность и автоматически выявляют мошенничество. Предиктивная аналитика: Системы прогнозируют риски (например, в здравоохранении или социальной поддержке), распределяя ресурсы министерств до того, как гражданин обратится за помощью. Также модель «Единого окна без дверей» (No Wrong Door). Абсолютная интероперабельность, это переданный запрос, поданный в любое министерство или приложение, автоматически обрабатывается через единую сквозную дата-платформу. Модульная модернизация. Это государства отказываются от переписывания огромных ИТ-систем целиком, переходя на гибкую микросервисную архитектуру, что снижает риск сбоев критически важных сервисов.

Также на сегодняшний день в условиях глобализации, активно развивается трансграничность сервисов. Оно подразумевает услуги за рубежом. Страны активно тестируют и развертывают МФЦ-сервисы за своими пределами. Это позволяет экспатам удаленно открывать банковские счета, регистрировать бизнес и получать цифровые подписи (ЭЦП) без визита в консульства. Трансграничный обмен данными: Инициативы ОЭСР и ЕС развивают безопасные шлюзы для обмена медицинскими и юридическими данными между странами

Немаловажно инклюзивность и качество жизни (Well-being & Inclusion). Цифровая доступность как фактор здоровья. Это доступ к госуслугам и стабильному интернету теперь рассматривается развитыми странами как базовое социальное благо, напрямую влияющее на качество жизни и уровень медицины в регионах. Цифровые двойники городов: Сингапур и города ЕС используют виртуальные копии инфраструктуры (Digital Twins) для симуляции коммунальных и социальных госуслуг, оптимизируя градостроительство в реальном времени.

Каждая страна стремится к цифровому суверенитету и безопасности. Безопасность ИИ и облаков: Правительства внедряют жесткие стандарты суверенных облачных вычислений и защитные барьеры (guardrails) против утечки персональных данных при работе с ИИ. Подготовка к постквантовой



криптографии: Ведущие страны G7 создают дорожные карты для защиты государственных баз данных от дешифровки будущими квантовыми компьютерами.

В Узбекистане адаптация передовых зарубежных практик (опыт Сингапура, Эстонии и ЕС) идет по пути глубокой перестройки «Электронного правительства» с упором на сквозную интеграцию баз данных, ИИ-контроль и проактивность. Республика внедряет комплексные стратегии (такие как Стратегия «Цифровой Узбекистан – 2030» и Стратегия развития ИИ до 2030 года). Процесс адаптации зарубежного опыта строится по следующим ключевым трендам:

1. Внедрение ИИ в госуправление (Опыт Сингапура и ОАЭ) ИИ-контроль над чиновниками: Запущено масштабное обновление «Электронного правительства». Искусственному интеллекту передаются функции контроля за исполнением поручений госслужащими, объединяя более 1000 госуслуг и 240 баз данных в одну платформу. ИИ на портале Mu.gov.uz: Голосовые помощники и чат-боты на базе ИИ внедряются для автоматической обработки запросов, сокращая сроки оказания более чем 100 услуг наполовину. Профессиональные ИИ-ассистенты: Внедряются специализированные платформы, такие как система «Цифровой помощник врача» для распознавания речи и помощи в постановке диагнозов, а также цифровизация следствия и надзора (E-tergov и Raqamli prokuror).

2. Композитные и проактивные услуги (Опыт Эстонии). Переход на «жизненные ситуации»: Госуслуги переводятся в композитную форму. Например, услуги по установлению инвалидности, направлению на льготное лечение и постановка в электронную очередь объединяются в один бесшовный процесс. Отмена справок: Действует жесткий запрет на требование от граждан документов, которые уже есть в государственных базах данных (отменено предоставление более 110 видов документов и сведений).

3. Развитие МФЦ и «ЦГУ на колесах» (Опыт ЕС). Доступность в регионах: При поддержке ЕС и ПРООН реализуется масштабный проект стоимостью €4,9 млн для цифровизации бэк-офисов и открытия новых точек госуслуг непосредственно в махаллях удаленных регионов. Мобильные центры: Для преодоления барьера цифровой грамотности активно используются мобильные Центры государственных услуг («ЦГУ на колесах»), которые выезжают к жителям отдаленной сельской местности.

4. Вертикальные экосистемы и Аутсорсинг (Опыт Великобритании) Единая национальная платформа туризма: Запускается супер-приложение для туристов, объединяющее eSIM, регистрацию по месту пребывания, бронирование и покупку единых билетов в музеи. Передача госуслуг бизнесу: Частным подрядчикам на аутсорсинг передаются более 15 направлений государственных услуг, что снижает нагрузку на бюджет и повышает качество сервиса за счет рыночной конкуренции.

Цифровая трансформация государственных услуг — это переход от простого перевода бумажных документов в электронный формат



(цифровизация) к полной реорганизации работы госорганов. Она строится на потребностях человека, использовании данных, искусственного интеллекта и проактивности, когда услуги предоставляются без запроса.

К ключевым принципам трансформации можно отнести проактивность, сквозную интеграцию и омниканальность. Можно охарактеризовать каждый принцип по отдельности.

Проактивность (услуги по жизненным ситуациям) – это сервисы предугадывают потребности. Например, при рождении ребенка документы оформляются автоматически, без необходимости заполнять бланки.

Сквозная интеграция – это единая база данных исключает необходимость собирать справки из разных ведомств; государство обменивается ими самостоятельно.

Омниканальность, это получение услуг доступно через различные платформы (веб-порталы, мобильные приложения, чат-боты) с сохранением бесшовного опыта пользователя. Цифровой профиль: Идентификация личности с помощью биометрии или единой учетной записи, что делает посещение инстанций необязательным.

Таким образом анализ зарубежного опыта цифровой трансформации государственных услуг позволяет сделать пять ключевых выводов, которые определяют вектор развития современных государств, включая Узбекистан. Переход от «цифровизации» к «невидимому государству». Просто оцифровать бумажную форму или создать приложение — уже недостаточно. Таким образом передовые страны (Эстония, Сингапур) внедряют проактивный формат (Invisible Government). Государство само инициирует услугу на основе жизненной ситуации гражданина (рождение ребенка, выход на пенсию), избавляя человека от необходимости подавать заявления. Также искусственный интеллект — главный драйвер эффективности. ИИ перестал быть просто «умным чат-ботом» на сайте. Сегодня ИИ автоматизирует внутренние (бэк-офисные) процессы ведомств (Agentic AI). Он прогнозирует риски, проверяет комплаенс и контролирует исполнительскую дисциплину чиновников. Это кардинально снижает операционные издержки и исключает коррупционный фактор.

Дата-центричность и архитектура «Единого источника правды». Ведомства больше не имеют права дублировать данные или требовать их у граждан. Успех трансформации зависит от жесткой интероперабельности (как эстонская система X-Road). Все госорганы подключены к единой шине обмена данными. Если информация о гражданине есть в одной базе, другие ведомства обязаны запрашивать ее автоматически.

Ликвидация цифрового неравенства (Инклюзивность). Высокие технологии бесполезны, если к ним нет доступа у жителей отдаленных регионов или уязвимых слоев населения. Мировой тренд требует баланса между онлайн и офлайн. Для этого развиваются гибридные модели: мобильные центры госуслуг (как в Узбекистане при поддержке ЕС/ПРООН) и



супер-аппы, доступные на простых смартфонах, чтобы никто не остался изолированным от цифровых благ.

Список литературы

1. United Nations E-Government Survey 2024: Accelerating Digital Transformation for Sustainable Development. — New York: United Nations Department of Economic and Social Affairs, 2024.
2. Алиева, М. Б. Цифровизация государственных услуг в зарубежных странах: особенности и их правовые проблемы / М. Б. Алиева // Право и цифровое управление. — 2025. — № 4. — С. 112–119.
3. Васильева, Е. В. Международный опыт по цифровизации государственного управления на примере Сингапура, Норвегии, Великобритании и Германии / Е. В. Васильева, А. М. Колесников // Научный журнал «КиберЛенинка». — 2024. — № 2.



ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

“4K” MODELI ASOSIDA TASHKIL ETILGAN DARSLARDA
O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHI O‘RTASIDAGI O‘ZARO HAMKORLIKNI
RIVOJLANTIRISH

Boltayeva Hulkar Mardonqul qizi

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti

mustaqil izlanuvchisi

boltayevahulkar00@gmail.com

ORCID:<https://orcid.org/0009-0005-8503-7711>

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “4K” modelining to‘rtinchi komponenti – kreativlikning boshlang‘ich sinf dars jarayonida, xususan, “O‘qish savodxonligi” darslarida qanday rivojlantirilishi yoritib berilgan. Shu bilan birga, boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi ta‘limida kritik tafakkurni rivojlantiruvchi 4K modelidan foydalanish va uning hozirgi zamon ta‘lim jarayoni bilan chambarchas bog‘liqligi haqida fikr yuritilgan*

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности развития креативности как четвертого компонента модели «4К» в образовательном процессе начальной школы, в частности на уроках читательской грамотности. Кроме того, анализируется использование модели «4К», направленной на развитие критического мышления в процессе обучения родному языку и читательской грамотности учащихся начальных классов, а также раскрывается её тесная взаимосвязь с современными требованиями образовательного процесса.

Abstract. This article examines the development of creativity as the fourth component of the 4C model in primary school education, particularly in reading literacy lessons. It also discusses the application of the 4C model aimed at fostering critical thinking in the teaching of the mother tongue and reading literacy in primary education, highlighting its close relationship with the requirements of the modern educational process.

Kalit so‘zlar: *“4K” modeli, yaratuvchanlik, savodxonlik, boshlang‘ich ta‘limda ilmiy dunyoqarash, tarbiya, tanqidiy fikrlash, ko‘nikma, ijodiy yondashu, darslik, davriylik, an‘anaviy, ommaviy, mezon, tizim.*

Ключевые слова: *модель «4К», креативность, грамотность, научное мировоззрение в начальном образовании, образование, критическое мышление, навыки, творческий подход, учебник, периодичность, традиционный, массовый, критерий, система.*

Key words: *4K model, creativity, literacy, scientific worldview in primary education, education, critical thinking, skills, creative, textbook, frequency, traditional, mass, criterion, system.*



Zamonaviy ta'lim tizimida o'qish savodxonligi darslari o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim sohasinimodernizatsiya qilish va innovatsion rivojlanishni ta'minlash jarayonida yosh avlodning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, uklarida kreativ va tanidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga ta'lim sifatini xalqaro mezonlar asosida takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, baholash tizimi zamonaviy talablar asosidarivojlantirish amda xalqaro ilmiy va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bu jarayonda "4K" modeli – kreativlik, kritik fikrlash, kollaboratsiya va kommunikatsiya – ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Milliy o'quv dasturida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoli va ijodiy vazifalarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish muhim ta'lim natijalari sifatida e'lon qilingan bo'lib, o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirmasdan va tanqidiy fikrlashni shakllantirmasdan amalga oshirib bo'lmaydigan holatdir. Ushbu kompetensiyalar yuqori darajadagi ko'nikmalar bo'lib, tarbiyalanuvchilarning tahlil qila olish salohiyatini mustahkamlashni rag'batlantiradi. Biroq, ularga rasmiy baho berilmagan. Ommaviy maktab amaliyotida an'anaviy dars doirasida va ma'lum bir fan mazmuniga nisbatan ushbu kompetensiyalarni shakllantirish va baholash imkonini beradigan bunday pedagogik texnologiyalar va baholash vositalari mavjud emas. Bundan tashqari, bu kompetensiyalar ta'lim standartlari doirasida ham aniq tavsifga ega emas. Milliy o'quv dasturi tomonidan o'rnatilgan meta-fanni o'rganish natijalari va "4K" ko'nikmalari xususiyatlarining o'zaro bog'liqligi ular juda yaqin va kesishgan degan xulosaga kelishimizga imkon beradi, shuning uchun "4K"ning shakllanish darajasini baholash vositalari ta'lim standartining meta-mavzu natijalarini baholash imkonini beradi.

O'qish savodxonligi o'quvchilarning matnni anglash, tahlil qilish, talqin etish hamda undan zarur axborotni ajratib olish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu kompetensiya nafaqat ta'lim jarayonida, balki kundalik hayotda ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'qish savodxonligining rivojlanishi o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish hamda asosli qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan, 4K kompetensiyalari — kreativlik, kritik fikrlash, kollaboratsiya va kommunikatsiya — o'qish savodxonligini rivojlantirishning muhim tarkibiy omillari bo'lib, o'quvchilarning ta'limiy faoliyatdagi muvaffaqiyatini ta'minlash bilan birga, ularni zamonaviy jamiyat talablariga mos kompetent shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilar bilan o'zaro aloqani rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. U o'quvchilarga ko'rsatma berish, ular bilan matnni muhokama qilish va bahs-munozaralar o'tkazish orqali ularning fikrlarini rivojlantirishi mumkin. Bo'lajak o'qituvchi o'z bilimlarini o'quvchilarga yetkazishda, ularni tinglashda va rag'batlantirishda hamkorlikni ta'minlashi zarur. Masalan, o'qituvchi dars davomida o'quvchilardan savol berishlarini so'rashi yoki ularning fikrlarini



so‘rash orqali o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undashi mumkin. Bunday yondashuv o‘quvchilarning o‘z fikrlariga ishonch hosil qilishlariga yordam beradi.

Kollaboratsiya o‘quvchilarning faolligini oshiradi. O‘quvchilar birgalikda ishlaganda, ular o‘zaro fikr almashish, o‘z qarashlarini baham ko‘rish va muammolarni hal qilishda samarali yondashuvlarni topishga harakat qilishadi. Darslarda guruh bo‘lib ishlashni tashkil etish orqali o‘quvchilar o‘zaro aloqalarni mustahkamlaydi. Masalan, o‘quvchilar o‘zaro matn tahlili yoki bahs-munozara olib borish orqali bir-biridan o‘rganadilar. Bunday jarayon o‘quvchilarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga va ijtimoiy ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi, o‘quvchilarning ijodiy fikrlash va yangi g‘oyalarni kashf etish imkoniyatini oshiradi. O‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilar birgalikda loyiha bo‘yicha ishlaganda, ular o‘z g‘oyalarni birlashtirib, ijodiy yechimlar topadilar. O‘qituvchi bunday jarayonni rag‘batlantirish orqali o‘quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini oshiradi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashlariga va yangi muammolarni hal qilishda kreativ yondashuvlarini rivojlantirishga yordam beradi.

O‘qish savodxonligi darslarida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik ta’lim jarayonining muhim jihati hisoblanadi. O‘qituvchi o‘z bilimlarini o‘quvchilarga yetkazish va ularni rag‘batlantirish orqali hamkorlikni ta’minlaydi. O‘quvchilar esa, o‘zaro muloqot qilib, fikr almashish va yangi g‘oyalarni kashf etish orqali faol ishtirok etadilar. Bunday hamkorlik ta’lim jarayonini qiziqarli, interfaol va samarali qiladi. O‘qish savodxonligi darslarida hamkorlikning ahamiyatini inkor etish mumkin emas, chunki u o‘quvchilarning o‘zaro aloqalarini mustahkamlashga, ijodiy fikrlashga va tanqidiy yondashuvlarni rivojlantirishga yordam beradi. Shu tariqa, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlik ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli bo‘lishida muhim omil hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchilarning mustaqil fikrlashlari, tanqidiy tahlil qilishlari va murakkab masalalarni hal etish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilganligi bilan ham ahamiyatlidir. O‘qish savodxonligi darslari bu ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchining rahbar sifatida ishtiroki esa o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega.

Bo‘lajak o‘qituvchi o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarni rag‘batlantiruvchi va yo‘naltiruvchi sifatida xizmat qilishi lozim. Uning vazifasi o‘quvchilarga murakkab savollar berish, fikr almashish jarayonini tashkil etish va o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga undashdir. O‘qituvchi o‘quvchilarga matnni o‘rganishda, asosiy g‘oyalarni ajratishda va o‘z fikrlarini erkin ifoda etishda yordam beradi. Masalan, dars jarayonida muhokama o‘tkazish va o‘quvchilarning fikrlarini tinglash orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning fikrlarini kengaytiradi va ularni o‘z fikrlarini rivojlantirishga undaydi.

Kritik fikrlash – bu o‘quvchilarning ma’lumotni tahlil qilish, baholash va undan xulosa chiqarish qobiliyatidir. O‘qish savodxonligi darslarida tanqidiy fikrlash o‘quvchilarga matnni chuqurroq tushunib yetishlariga, muallifning niyatini tahlil qilishlariga va o‘z fikrlarini yaratishlariga imkon beradi. O‘qituvchi o‘quvchilarga muammolarni hal qilishda tanqidiy yondashuvni o‘rgatishi zarur. Dars



davomida o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etishga, bir-birining fikrlarini tahlil qilishga va mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rganishlari kerak.

O'qituvchining rahbar sifatidagi roli o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishda ham muhimdir. O'quvchilar o'z fikrlariga ishonch hosil qilishlari, savollar berishlari va o'zaro muhokama qilishlari uchun o'qituvchining doimiy ravishda qo'llab-quvvatlashi zarur. O'qituvchi o'quvchilarning fikrlarini hurmat qilishi, ularga yordam berishi va o'zaro muloqotni rivojlantirishi kerak. Bu jarayon o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlashga va ularni dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi.

O'qish savodxonligi darslarida o'qituvchining rahbar sifatidagi ishtiroki kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi o'quvchilarga yo'naltiruvchi va rag'batlantiruvchi sifatida xizmat qiladi, ularni murakkab masalalarni hal qilishda, kritik fikrlashda va o'z fikrlarini ifoda etishda qo'llab-quvvatlaydi. O'quvchilarning darslarga faol ishtiroki va kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Shunday qilib, o'qituvchining rahbar sifatidagi ishtiroki nafaqat o'quvchilarning bilimlarini, balki ularning fikrlash ko'nikmalarini ham mustahkamlashga yordam beradi. Ta'lim jarayoni shunchaki bilimlarni yetkazish emas, o'quvchilarni fikrlovchi, mustaqil va tanqidiy yondashuvga ega shaxslar sifatida rivojlantirishdir. Bu jarayonning muvaffaqiyati esa bo'lajak o'qituvchining rahbar sifatidagi ishtirokiga bog'liq.

4K modeling birinchi komponenti – kreativlikni rivojlantirishda o'qituvchi o'quvchilarga ijodiy topshiriqlar, liyoha ishlari, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar va amaliy mashg'ulotlarni taklif etadi. O'quvchilar bberilgan vazifalarni bajarish jarayonida yangi g'oyalarni ilgari surish, noan'anaviy yechimlar topish va o'z ijodiy salohiyatini namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kritik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda ham o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyatga ega. O'quvchi tayyor javoblarni bermaydi, balki o'quvchilarni savollar orqali fikrlashga matndagi dalillarni tahlil qilishga, turli qarashlarni taqqoslashga va asoslangan xulosalar chiqarishga yo'naltiradi. Natijada o'quvchilarda mustaqil fikrlash, axborotni tanqidiy baholash va muammolarga turli nuqtayi nazardan yondashish kompetensiyalari rivojlanadi.

Kollaboratsiya komponenti nafaqat o'quvchilarning o'zaro hamkorligini, balki o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi sheriklik munosabatlarini ham nazarda tutadi. O'quvchi guruh faoliyatini muvofiqlashtiradi, muammoli vaziyatlarni yaratadi, zarur metodik yordam ko'rsatadi va o'quvchilarning mustaqil xulosa chiqarishiga sharoit yaratadi. O'quvchilar esa guruh a'zolari va o'qituvchi bilan fikr almashadi, muammolarni birgalikda hal qiladi hamda umumiy natijaga erishish ucun mas'uliyatni baham ko'radi.

Kommunikatsiya kompetensiyasi ham ushbu jarayonda muhim o'rin tutadi. Dars davomida tashkil etilgan savol-javoblar, munozaralar, taqdimotlar, bahs va refleksiya mashg'ulotlari o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantiradi. O'qituvchi konstruktiv fikr-mulohazalar berish orqali o'quvchilarning o'z fikrini aniq mantiqiy va ishonchli ifodalash ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Zamonaviy ta'lim tizimida 4K modeli asosida tashkil qilingan darslar



o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik ta'lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. O'quvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtirok etishi va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlanishi, darslarni jonli muloqotga aylantiradi. Natijada darslar bir tomonlama axborot uzatish jarayonidan interfaol muloqot va hamkorlikka asoslangan ta'lim muhitini samarali o'zgartiradi. O'qish savodxonligi darslari bu jarayonda o'quvchilarga matnlarni chuqur o'rganish, tahlil qilish va o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkonini beradi. O'quvchilarning dars jarayonida faol ishtiroki va kreativligi ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, 4K modeli asosida yaratilgan darsliklarda berilgan topshiriqlar o'quvchini mantiqiy tanqidiy fikrlashga, tadqiqot va tahlil qilishga, tanqidiy mulohaza yuritishga, ma'lumotlardan unumli foydalanishga, o'quvchilar ilmiy savodxonligini oshirishga, o'zaro mazmunli va mantiqli muloqot qilishga, tashabbuskorlikka va tizimli fikrlashga o'rgatadi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarga turli xildagi topshiriqlar va savol-javoblar, aqliy jihatdan rivojlanishlariga qaratilgan suhbatlar orqali ularning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishimiz hamda asta-sekin rivoltantira borishimiz mumkin. Buning uchun o'qituvchidan sabrlik, mahoratlik, qobiliyatlik, kommunikativlik, kreativlik, talabchanlik kabi sifatlar talab etiladi. O'qish savodxonligi darslarida 4K modelidan foydalanish o'quvchilarni dars jarayonida yanada faol bo'lishlariga va darsning osuda tinglovchisidan mustaqil fikrlovchi, ijodkor, samarali muloqotga kirishuvchiga aylantiradi

Foydalanilgan adabiyotlar .

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni. O'RQ637-son 23. 09. 2020. Ta'lim to'g'risida (lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risidagi 2019-yil 29-apreldagi 5712-sonli Farmoni.
3. . Adizov B. R., Khamroev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students // Ilmiy xabarnoma. – C. 69.1.Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B. Umumiy didaktika. – Toshkent: 2009.
- 4 Hamroyev A. Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish. Monografiya. GlobeEdit. 124 bet. ISBN 978-620-0-60873-4.
5. Ochilov F.I. Ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida dars samaradorligi. – Toshkent, 2016.



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA KASBGA YO'NALTIRISHNING SAMARALI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

Axmedova Muxabbat Axmedovna

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha
mutaxassislarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish institute
Nukus filiali katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish jarayonining pedagogik mazmuni, zamonaviy texnologiyalari va ularni amaliyotga tatbiq etish yo'llari tahlil qilinadi. Kasb tanlash jarayoni faqat mehnat bozoriga mos mutaxassis tayyorlash masalasi emas, balki o'quvchining qiziqishi, qobiliyati, ijtimoiy faolligi va hayotiy maqsadini shakllantirish bilan bevosita bog'liq jarayon sifatida yoritiladi. Shuningdek, maktab, oila, mahalla va ish beruvchilar hamkorligi kasbga yo'naltirish ishlarining muhim sharti sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: kasbga yo'naltirish, umumiy o'rta ta'lim, texnologiya, kasbiy diagnostika, o'quvchi qobiliyati, kasbiy tanlov, ta'lim trayektoriyasi.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktabi oldida turgan muhim vazifalardan biri o'quvchini nafaqat fanlarni o'zlashtirgan bilimli shaxs, balki kelajak hayot yo'lini ongli tanlay oladigan, kasbiy qaror qabul qilishga tayyor, ijtimoiy mas'uliyatli inson sifatida tarbiyalashdir. Kasb tanlash inson hayotidagi oddiy tashkiliy tanlov emas, balki shaxsning o'z qobiliyati, qiziqishi, qadriyati va jamiyat ehtiyojlari o'rtasidagi uyg'unlikni topish jarayonidir. Shuning uchun kasbga yo'naltirish ishlarini faqat bitiruvchi sinflarda qisqa suhbat yoki targ'ibot tadbiri bilan cheklash yetarli emas. Bu jarayon 5–11-sinflar davomida izchil, bosqichma-bosqich va ilmiy asoslangan pedagogik tizim sifatida tashkil etilishi lozim.

Kasbiy yo'naltirish nazariyasining dastlabki asoslaridan biri F. Parsons tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda to'g'ri kasb tanlash uchun shaxs o'z qobiliyatini bilishi, kasblar haqidagi ma'lumotga ega bo'lishi va bu ikki omilni oqilona taqqoslay olishi zarurligi ta'kidlangan [1,5]. D.Super esa kasbiy rivojlanishni insonning butun hayoti davomida shakllanadigan jarayon sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, o'quvchining kasb haqidagi tasavvuri yosh, ijtimoiy muhit, tajriba va o'z-o'zini anglash darajasi bilan bog'liq holda rivojlanadi [2,72]. Umumiy o'rta ta'limda kasbga yo'naltirish-bu o'quvchining qiziqishi, layoqati, bilim darajasi, temperament xususiyatlari, mehnatga munosabati va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda uni kelajak kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonidir. Bu jarayon samaradorligi o'qituvchi, sinf rahbari, maktab psixologi, ota-ona va mahalliy hamkor tashkilotlarning uzviy hamkorligiga bog'liq. [3,19].

Kasbga yo'naltirishning pedagogik mohiyati uch asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchisi-axborot berish: o'quvchi turli kasblar, ularning mazmuni, mehnat



sharoiti, talab etiladigan bilim va ko'nikmalar haqida ishonchli ma'lumot oladi. Ikkinchisi-diagnostika: o'quvchining qiziqishi, individual imkoniyati va kasbiy moyilligi aniqlanadi. Uchinchisi-amaliy tayyorgarlik: o'quvchi turli kasbiy vaziyatlar, loyiha ishlari, ustaxonalar, ekskursiyalar va tajriba mashg'ulotlari orqali kelajak kasbi haqida real tasavvurga ega bo'ladi.

Kasbga yo'naltirishda birinchi muhim texnologiya-pedagogik-psixologik diagnostika texnologiyasidir. Bu texnologiya o'quvchilarning kasbiy qiziqishi, qobiliyati, muloqotga kirishish darajasi, yetakchilik xususiyatlari va mehnat faoliyatiga munosabatini aniqlashga xizmat qiladi. Diagnostika faqat test o'tkazish bilan cheklanmasligi kerak. Unda suhbat, kuzatish, ijodiy topshiriq, ota-ona bilan muloqot va o'quvchining fanlarga munosabatini tahlil qilish kabi usullar uyg'un qo'llanadi. [7,116]. Ikkinchi samarali yo'nalish-loyihaviy ta'lim texnologiyasidir. Bunda o'quvchilar muayyan kasb yoki ishlab chiqarish sohasi bilan bog'liq kichik loyihalarni bajaradilar. Masalan, "Mening kelajak kasbim", "Mahallamizdagi kasblar xaritasi", "Oilaviy kasblar tarixi", "Zamonaviy kasblar va raqamli ko'nikmalar" kabi loyihalar o'quvchilarda izlanish, tahlil qilish, taqdimot qilish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Loyiha texnologiyasi o'quvchini tayyor ma'lumot iste'molchisi emas, balki o'z kelajagi haqida izlanadigan faol subyektga aylantiradi. Uchinchi texnologiya-interfaol metodlar asosidagi kasbiy yo'naltirishdir. "Aqliy hujum", "Insert", "Klaster", "Debat", "Keys-stadi", "Rol o'ynash", "Kasbiy vaziyatni modellashtirish" kabi metodlar o'quvchining faolligini oshiradi. Masalan, "Shifokor qabulida", "Bank mutaxassisi va mijoz", "Tadbirkorlik loyihasi himoyasi", "Muhandislik muammosini yechish" kabi rolli mashg'ulotlar o'quvchilarda muayyan kasbga xos muloqot, mas'uliyat, qaror qabul qilish va muammoni hal etish malakalarini shakllantiradi. Bunday yondashuv o'quvchiga kasbni kitobiy tasavvur orqali emas, balki amaliy vaziyat orqali anglash imkonini beradi. To'rtinchi muhim texnologiya-axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishdir. Raqamli platformalar, kasblar katalogi, onlayn testlar, videodarslar, virtual ekskursiyalar va elektron portfolio o'quvchining kasblar haqidagi tasavvurini kengaytiradi. Ayniqsa, chekka hududlardagi maktablarda turli soha mutaxassislari bilan onlayn uchrashuvlar o'tkazish, korxonalar va tashkilotlar faoliyati bo'yicha videomateriallardan foydalanish kasbiy axborot yetishmovchiligini kamaytiradi. National Research Council hisobotida XXI asr ko'nikmalari sifatida tanqidiy fikrlash, hamkorlik, muammoli vaziyatni hal etish va o'z-o'zini boshqarish alohida ko'rsatiladi [5, 39]. Bu jihatlar kasbga yo'naltirish jarayonida ham muhim mezon hisoblanadi. Beshinchi yo'nalish-portfolio texnologiyasidir. Har bir o'quvchi uchun "kasbiy rivojlanish portfoliosi" yuritilishi maqsadga muvofiq. Unda o'quvchining qiziqishlari, erishgan natijalari, ijodiy ishlari, loyiha topshiriqlari, sertifikatlari, diagnostika xulosalari va kelajak rejalari jamlanadi. Portfolio o'quvchiga o'z o'sishini kuzatish, o'qituvchiga esa individual yo'nalish berish imkonini yaratadi. Bunday yondashuv o'quvchini o'z imkoniyatlarini baholashga, kuchli va zaif tomonlarini anglashga, shaxsiy rivojlanish rejasini tuzishga o'rgatadi.

Kasbga yo'naltirish ishlarining samaradorligi ko'p jihatdan maktabning tashqi hamkorlik aloqalariga bog'liq. Ota-onalar, mahalla faollari, kasb-hunar maktablari,



oliy ta'lim muassasalari, tadbirkorlik subyektlari va ishlab chiqarish tashkilotlari bilan hamkorlik o'quvchilarga real kasbiy muhitni ko'rish imkonini beradi. 2025-yildagi hukumat qarorida o'quvchilarni darsdan tashqari vaqtda kasb-hunarga o'qitishda tadbirkorlik subyektlarini jalb etish, amaliy imtihon va elektron sertifikat berish tartiblarini joriy etish vazifalari belgilangan. Oila ham kasb tanlashda muhim ta'sir kuchiga ega. Ba'zan ota-onalar farzandining individual qobiliyatidan ko'ra, jamiyatda "obro'li" deb qaralayotgan kasblarni tanlashga undaydi. Bu esa o'quvchining ichki qiziqishi va tashqi bosim o'rtasida ziddiyat yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun maktabda ota-onalar uchun "Farzandimning kasbiy qiziqishini qanday aniqlayman?", "Kasb tanlashda ota-onaning pedagogik mas'uliyati", "Zamonaviy kasblar" kabi mavzularda seminarlar tashkil etish zarur.

Kasbga yo'naltirishning samarali pedagogik texnologiyalari o'quvchida uch asosiy natijani shakllantiradi. Birinchidan, o'quvchi o'z shaxsiy imkoniyatlarini anglaydi. Ikkinchidan, u kasblar dunyosi haqida kengroq va haqqoniy tasavvurga ega bo'ladi. Uchinchidan, kelajak ta'lim yo'nalishi yoki kasbiy faoliyat bo'yicha ongli qaror qabul qilishga tayyorlanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kasbga yo'naltirishning an'anaviy shakllari-ma'ruza, suhbat, targ'ibot uchrashuvlari-zarur bo'lsa-da, ular o'quvchini faol harakatga undashda yetarli emas. Samarali natija beruvchi texnologiyalar o'quvchini bevosita izlanishga, taqqoslashga, sinab ko'rishga va xulosa chiqarishga majbur qiladigan metodlardir. Shu bois kasbiy diagnostika, loyiha ishlari, amaliy mashg'ulot, raqamli platforma, kasbiy portfolio va ijtimoiy hamkorlik bir-biri bilan bog'langan holda qo'llanilgandagina kutilgan pedagogik natija yuzaga chiqadi. [4, 33].

Xulosa. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish ishlarini samarali tashkil etish zamonaviy ta'limning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu jarayon o'quvchining shaxsiy qiziqishi, qobiliyati, ijtimoiy ehtiyoji va mehnat bozori talablari o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Kasbga yo'naltirishda pedagogik-psixologik diagnostika, loyiha metodi, interfaol mashg'ulotlar, raqamli texnologiyalar, portfolio yuritish va ijtimoiy hamkorlik texnologiyalaridan kompleks foydalanish yuqori samaradorlik beradi. Maktabda kasbga yo'naltirish ishlari epizodik tadbir emas, balki uzluksiz pedagogik tizim sifatida yo'lga qo'yilishi lozim. Har bir fan o'qituvchisi o'z darsida fanning hayotiy va kasbiy ahamiyatini ochib bera olsa, sinf rahbari o'quvchining shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini kuzatsa, psixolog individual maslahat bersa, ota-ona va ish beruvchilar hamkorlikda ishtirok etsa, o'quvchining kasbiy tanlovi yanada ongli, asosli va hayotiy bo'ladi. Eng muhimi, kasbga yo'naltirish o'quvchini faqat mehnatga tayyorlash emas, balki uni o'z kelajagi uchun mas'uliyatli qaror qabul qila oladigan yetuk shaxs sifatida shakllantirish jarayonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Parsons F. Choosing a Vocation. Boston: Houghton Mifflin, 1909. — 165 p.
2. Super D.E. The Psychology of Careers: An Introduction to Vocational Development. New York: Harper & Brothers, 1957. -362 p.



3. OECD. Career Guidance and Public Policy: Bridging the Gap. Paris: OECD Publishing, 2004. -172 p.
4. UNESCO. Rethinking Education: Towards a Global Common Good? Paris: UNESCO Publishing, 2015. -84 p.
5. National Research Council. Education for Life and Work: Developing Transferable Knowledge and Skills in the 21st Century. Washington, DC: The National Academies Press, 2012. -256 p.
6. Savickas M.L. Career Construction Theory and Practice // Brown S.D., Lent R.W. *Career Development and Counseling: Putting Theory and Research to Work*. 2nd ed. Hoboken: John Wiley & Sons, 2013. -P. 147–183.
7. Brown S.D., Lent R.W. *Career Development and Counseling: Putting Theory and Research to Work*. 2nd ed. Hoboken: John Wiley & Sons, 2013. -720 p.
8. Tolipov O‘.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘llash texnologiyasi. Toshkent: O‘zPFITI, 2004. -32 b.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi PQ-53-son qarori. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 2024.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-fevraldagi 78-son qarori. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kasb-hunarga o‘qitishda tadbirkorlik subyektlarini jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 2025.



BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA IJODKORLIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Julmatova Saodat Jur’atjon qizi
Samarqand davlat chet tillar instituti
Pedagogika, psixologiya va jismoniy
madaniyat kafedrası PhD dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodiy tafakkur, mustaqil qaror qabul qilish, yangicha pedagogik yechim topish va kasbiy vaziyatlarga moslashuvchan yondashish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, oliy pedagogik ta‘lim jarayonida ijodkorlikni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan motivatsion, metodik, tashkiliy va psixologik shart-sharoitlar asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak pedagog, ijodkorlik, kreativ tafakkur, pedagogik shart-sharoit, kasbiy kompetensiya, innovatsion ta‘lim, refleksiya, mustaqil fikrlash.

Zamonaviy ta‘lim jarayonida pedagog shaxsiga qo‘yiladigan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Bugungi o‘qituvchi faqat bilim beruvchi mutaxassis emas, balki o‘quvchini mustaqil fikrlashga, muammoni turli nuqtayi nazardan tahlil qilishga, yangilik yaratishga va ijtimoiy hayotda faol bo‘lishga yo‘naltiruvchi ijodkor shaxs sifatida namoyon bo‘lishi zarur. Shu bois bo‘lajak pedagoglarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish oliy pedagogik ta‘limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ijodkorlik pedagogik faoliyatda tayyor andozalardan foydalanish bilangina cheklanmaydi. U o‘quv jarayonida yuzaga keladigan turli vaziyatlarga mos yechim topish, darsni o‘quvchilarning qiziqishi va ehtiyojlariga mos tashkil etish, ta‘lim mazmunini hayotiy tajriba bilan bog‘lash, shuningdek, yangicha metod va texnologiyalarni qo‘llash qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda ijodkorlik shaxsning mustaqil fikrlashi, muammoga noodatiy yondashishi, yangi g‘oya yaratishi hamda mavjud bilimlarni yangi sharoitda samarali qo‘llay olishi bilan izohlanadi [2,445]. Bo‘lajak pedagoglarda ijodkorlikni shakllantirish masalasi ayniqsa dolzarbdir, chunki ular kelgusida o‘quvchilarning dunyoqarashi, tafakkuri va shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Agar o‘qituvchining o‘zi ijodiy fikrlashga, izlanishga, yangilikni qabul qilishga tayyor bo‘lmasa, u o‘quvchilarda ham bunday fazilatlarni samarali rivojlantira olmaydi.

Ijodkorlik inson tafakkurining yuqori bosqichi bo‘lib, u mavjud bilim va tajribalar asosida yangi g‘oya, usul yoki mahsulot yaratish jarayonini bildiradi. J. Guilford ijodkorlikni divergent tafakkur bilan bog‘lab, insonning bir muammoga bir nechta yechim topa olishi, fikrlashda moslashuvchanlik va originallik ko‘rsata olishini alohida ta‘kidlaydi [2,447]. Bu yondashuv pedagogik ta‘lim uchun muhim ahamiyatga ega, chunki o‘qituvchi faoliyati doimiy ravishda muammoli vaziyatlar,



kutilmagan savollar va individual yondashuvni talab qiladigan holatlar bilan bog'liq. L.S.Vygotskiy ta'lim va rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni izohlar ekan, shaxsning yuqori psixik funksiyalari ijtimoiy muhit va faoliyat orqali shakllanishini ko'rsatadi [1,86]. Demak, ijodkorlik ham tug'ma imkoniyat sifatida mavjud bo'lishi mumkin, biroq uning rivojlanishi ko'p jihatdan ta'lim muhiti, pedagogik ta'sir, muloqot va amaliy faoliyatga bog'liq. Bo'lajak pedagog ijodkorlikni faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki kasbiy faoliyatda qo'llanadigan amaliy kompetensiya sifatida egallashi lozim. [3,83]. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib aytish mumkinki, bo'lajak pedagogda ijodkorlikni rivojlantirish uchun faqat bilim berish yetarli emas. Talabada izlanishga ehtiyoj, kasbga qiziqish, yangilik yaratishga intilish va o'z pedagogik g'oyalarni sinab ko'rish imkoniyati bo'lishi kerak.

Bo'lajak pedagoglarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish, avvalo, motivatsion muhit yaratishdan boshlanadi. Talaba o'z kasbining ijtimoiy ahamiyatini anglaganida, pedagoglik faoliyatini shunchaki majburiyat emas, balki ijodiy izlanish maydoni sifatida qabul qila boshlaydi. Kasbga nisbatan ijobiy munosabat, o'zini rivojlantirishga ehtiyoj, yangi pedagogik yechim topishga qiziqish ijodkorlikning ichki omillarini kuchaytiradi. [3,107]. Ikkinchi muhim shart - ijodiy ta'lim muhitini tashkil etishdir. Ijodiy muhit talabaga erkin fikr bildirish, savol berish, yangilishdan qo'rqmaslik, turli yechimlarni taqqoslash va mustaqil xulosa chiqarish imkonini beradi. Beghetto va Kaufman ta'lim muhitining kreativlikka ta'sirini tahlil qilib, o'qituvchi tomonidan qo'llab-quvvatlash, ochiq muloqot va xavfsiz psixologik muhit ijodiy faollikni oshirishini ta'kidlaydi [6,54]. Uchinchi shart - ta'lim mazmunini ijodiy topshiriqlar bilan boyitishdir. An'anaviy ma'ruza va seminarlar bo'lajak pedagogga zarur nazariy bilim beradi, biroq ijodkorlik ko'proq faol, muammoli va amaliy topshiriqlar orqali shakllanadi. To'rtinchi shart-muammoli ta'lim va loyiha metodlaridan foydalanishdir. Muammoli vaziyat talabani tayyor javob izlashdan ko'ra, masalaning mohiyatini tushunish, sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlash va yangi yechim yaratishga undaydi. Loyiha faoliyati esa nazariya va amaliyotni birlashtiradi. Talaba dars loyihasi, tarbiyaviy tadbir ssenariysi, interfaol mashg'ulot modeli yoki raqamli ta'lim resursini ishlab chiqish jarayonida ijodiy faoliyatga kirishadi. [5,96]. Beshinchi shart-refleksiv faoliyatni yo'lga qo'yishdir. Ijodkor pedagog o'z faoliyatini doimiy tahlil qila oladigan, xatolaridan xulosa chiqaradigan, o'zining kuchli va zaif tomonlarini angelaydigan mutaxassisdir. Shuning uchun bo'lajak pedagoglarda refleksiv kundalik yuritish, dars tahlili yozish, o'z chiqishlariga baho berish, kursdoshlarining fikrini qabul qilish kabi ko'nikmalar shakllantirilishi lozim. Refleksiya ijodiy rivojlanishning ichki mexanizmi bo'lib, u talabaga o'z tajribasini anglash va keyingi faoliyatini takomillashtirish imkonini beradi. Oltinchi shart-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik munosabatidir. Ijodkorlik buyruqbozlik, haddan tashqari nazorat va biryoqlama baholash sharoitida to'liq rivojlanmaydi. U hamkorlik, ishonch, o'zaro hurmat va fikr almashish jarayonida shakllanadi. Pedagog talabani faqat ijrochi sifatida emas, balki ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida ko'rish kerak. Bunday yondashuv bo'lajak pedagoglarda tashabbuskorlik,



mas'uliyat va yangicha fikrlashni rivojlantiradi. Yettinchi shart-innovatsion va raqamli texnologiyalardan maqsadli foydalanishdir.

Zamonaviy pedagog dars jarayonida interfaol platformalar, multimedia vositalari, elektron resurslar, virtual taqdimotlar va onlayn hamkorlik vositalaridan samarali foydalanishi zarur. Biroq texnologiya o'z-o'zidan ijodkorlikni rivojlantirmaydi. U talabaning mustaqil fikrlashi, izlanishi va yangi mahsulot yaratishiga xizmat qilganda pedagogik ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, bo'lajak pedagoglar mavzu bo'yicha raqamli xarita, videodars, interfaol test yoki virtual laboratoriya loyahasini yaratish orqali ijodiy salohiyatini namoyon etishi mumkin.

Bo'lajak pedagoglarda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun oliy ta'lim jarayonida quyidagi metodik yondashuvlar samarali hisoblanadi. Birinchidan, darslarda ochiq savollar va muammoli topshiriqlar ulushini oshirish kerak. Masalan, "Bu mavzuni qanday tushuntirish mumkin?" degan savol o'rniga "Bu mavzuni qiziqishi past bo'lgan o'quvchilarga qanday usulda tushuntirgan bo'ladingiz?" mazmunidagi savol talabani ijodiy fikrlashga undaydi.

Ikkinchidan, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish muhimdir. Talabalarga real maktab hayotiga yaqin vaziyatlar berilishi, ular esa o'qituvchi sifatida qaror qabul qilishi kerak. Masalan, sinfda o'quvchilarning faolligi pasaygan, mavzu murakkab, vaqt cheklangan yoki o'quvchilar o'rtasida ziddiyat yuzaga kelgan holatlarda qanday pedagogik yechim tanlash mumkinligi muhokama qilinadi. Bunday mashg'ulotlar ijodiy va tanqidiy fikrlashni birgalikda rivojlantiradi.

Uchinchidan, ijodiy portfoliolarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Talaba o'zining dars ishlanmalari, taqdimotlari, metodik g'oyalari, tarbiyaviy tadbir loyihalari, tahliliy yozuvlari va reflektiv xulosalarini portfolioga jamlaydi. Bu jarayon ijodiy o'sishni kuzatish, baholash imkonini beradi. Sternberg ta'kidlaganidek, ijodkorlikni baholashda faqat yakuniy mahsulot emas, balki g'oyaning yangiligi, mosligi va amaliy qiymati ham hisobga olinishi zarur [4,251].

To'rtinchidan, talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etilishi ijodkorlikni kuchaytiradi. Kichik ilmiy izlanishlar, kuzatish, so'rovnomalar o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish, pedagogik muammo bo'yicha taklif ishlab chiqish bo'lajak pedagogda mustaqil fikrlash va ilmiy yondashuvni shakllantiradi. Bu esa keyinchalik maktab amaliyotida yangilikka intiluvchi, izlanadigan va o'z faoliyatini ilmiy asosda tashkil etadigan pedagog shaxsini tarbiyalaydi.

Xulosa. Bo'lajak pedagoglarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish zamonaviy oliy pedagogik ta'limning muhim yo'nalishlaridan biridir. Ijodkorlik o'qituvchining kasbiy faoliyatida darsni loyihalash, metod tanlash, o'quvchi shaxsiga individual yondashish, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish va ta'lim jarayoniga yangilik kiritish imkonini beradi. Shuning uchun pedagogik ta'limda ijodkorlikni tasodifiy fazilat sifatida emas, balki maxsus tashkil etilgan ta'limiy jarayon natijasi sifatida rivojlantirish zarur. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak pedagoglarda ijodkorlikni shakllantirish uchun motivatsion muhit, psixologik xavfsizlik, ijodiy topshiriqlar, muammoli ta'lim, loyiha faoliyati, refleksiya, hamkorlik va innovatsion texnologiyalar muhim pedagogik shart-sharoitlar hisoblanadi. Bu shart-sharoitlar o'zaro bog'liq holda tashkil etilgandagina



talabanning ijodiy tafakkuri, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va kasbiy moslashuvchanligi rivojlanadi. Demak, bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida ijodkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni va metodikasini takomillashtirish zarur. Bunda talabanning faolligi, mustaqil izlanishi, amaliy tajribasi va refleksiv tahliliga alohida e'tibor berilishi lozim. Ana shundagina kelajak o'qituvchisi zamonaviy ta'lim talablariga javob beradigan, yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor va ijodkor mutaxassis sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotsky L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. -159 p.
2. Guilford J.P. *Creativity // American Psychologist*. Washington, DC: American Psychological Association, 1950. Vol. 5, No. 9. - P. 444–454.
3. Amabile T.M. *Creativity in Context: Update to the Social Psychology of Creativity*. Boulder, CO: Westview Press, 1996. - 336 p.
4. Sternberg R.J. ed. *Handbook of Creativity*. Cambridge: Cambridge University Press, 1999. - 490 p.
5. Cropley A.J. *Creativity in Education and Learning: A Guide for Teachers and Educators*. London: Kogan Page; Sterling, VA: Stylus Publishing, 2001. - 208 p.
6. Beghetto R.A., Kaufman J.C. *Classroom Contexts for Creativity // High Ability Studies*. London: Routledge, Taylor & Francis Group, 2014. Vol. 25, No. 1. - P. 53–69.
7. Azizxo'jayeva N.N. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. -160 b.
8. Mavlonova R.A., To'rayeva O.T., Holiqberdiyev K.M. *Pedagogika*. Toshkent: O'qituvchi, 2001. - 512 b.



KICHIK VA O'RTA YOSH DAVRLARIDA MANTIQUIY TAFAKKUR MUAMMOSI

Shixova Inobat Omonovna

Xorazm viloyati Pedagogik Mahorat Markazi katta o'qituvchisi, psixologiya bo'yicha falsafa fanlari doktori(PhD), inobat@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik va o'rta yosh davrlarida mantiqiy mantiqiy tafakkur muammosi va uni o'rganilganlik darajasi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: kichik va o'rta maktab yosh, mantiqiy tafakkur, sinfdan tashqari ishlar, interfaol metodlar, yangi axborot texnologiyalari, mantiq, fikrlash

Pedagogika va psixologiyada insonning fikrlash jarayonini rivojlantirish, uni ta'lim-tarbiya orqali shakllantirish va samarali boshqarish masalalari mantiqiy tafakkur orqali amalga oshadi. Bunda ayniqsa, o'quvchilarda analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, ko'nikmalarni rivojlantirish masalalari muhim sanaladi. Xususan, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning didaktik asoslari; ta'lim metodlari va texnologiyalarining tafakkur rivojiga ta'siri; dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish yo'llari, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limni tashkil etish masalalari ustida bosh qotiriladi. Tafakkur jarayonining rivojlanish bosqichlari; fikrlash jarayonining psixologik mexanizmlari; tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, abstraksiyalash va konkretlashtirish kabi mantiqiy operatsiyalar, tafakkur, nutq, xotira, diqqat va tasavvur o'rtasidagi bog'liqliklar ta'lim, tarbiya va amaliy faoliyat jarayonida izchil rivojlanadi. Buni to'g'ri anglagan holda, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladigan samarali metodlar, interfaol texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish muhim vazifa hisoblanadi. Mantiqiy tafakkur shaxsning aqliy rivojlanishida muhim o'rin egallab, kichik va o'rta maktab yoshida bu jarayon jadal rivojlanadi.

Kichik maktab yoshi (7–10 yosh) davrida bolalarning tafakkuri aniq obrazlar va amaliy faoliyatlarga tayanadi. Bu yoshda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun didaktik o'yinlar, boshqotirmalar, konstruktorlar, mantiqiy masalalar, topishmoqlar hamda ko'rgazmali vositalardan foydalanish samarali hisoblanadi. Bu yoshdagi o'quvchilar predmetlarni taqqoslash, guruhlariga ajratish, sabab-oqibat bog'liqligini aniqlash va sodda xulosalar chiqarishni o'rganadilar. Kichik maktab yoshidagi bola bilan ta'lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, samarasi shunchalik barvaqt namoyon bo'ladi va bu jarayon bolaning butun hayotiga ijobiy ta'sir qiladi. Bu yoshda sinfdan tashqari mashg'ulotlar alohida ahamiyatga ega. Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarning qiziqishlariga asosan tashkil etilganda ularning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi, muammolarni hal etish ko'nikmalari va intellektual faolligi yanada rivojlanadi. Bunda yirik va mayda qo'l motorikasini rivojlantirish zarur. Chunki inson qo'l va barmoqlarida nerv tolalari joylashgan bo'lib barmoqlar orqali inson



axborotlar qabul qiladi. Bolalarning qo‘l motorikasi to‘g‘ri rivojlantirilsa, miya faoliyati shunchalik yaxshi taraqqiy qiladi. Natijada tafakkur, harakat koordinatsiyasi rivojlanadi, xotira va diqqat, yozish ko‘nikmalarining shakllanadi, nutqi ravonlashlanadi, tasavvur etish tafakkurnin rivojlanishi natijasida tafakkur rivojlanadi. Jumladan, rasm chizish, turli o‘yinlar, kubiklardan biron-bir narsa yasash kabi aqliy faoliyat orqali so‘z boyligi, mantiqiy tafakkuri rivojlanadi. Kichik maktab yoshida o‘quvchilarda mantiqiy tafakkurni shakllantirishda bola bilan birga kitob rasmlarini tahlil qilib o‘qish, ertakning mazmunini bolaga o‘yin tarzida qayta so‘zlatish, ertak eshitish jarayonida bola ertak qahramonlarini kimgadir o‘xshatishga harakat qiladi. Bolalar odatda bo‘yoq, un, qum bilan chizishni juda yaxshi ko‘rishadi. Ammo, doimo ham chizgan rasmi ko‘ngildagidek chiqmasligi uning xafsalasini pir qiladi. Shu sababli unga chala chizish mashg‘ulotini qo‘llab biron-bir narsani oxiriga yetkazmasdan chizib bersangiz uni tugatishi lozim bo‘ladi. Rasm solish bilan loy va plastilinlardan shakllar yasash orqali tasavvuri boyiydi.

O‘rta maktab yoshi (11–13 yosh) esa abstrakt va nazariy fikrlashning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Bu davrda o‘quvchilar murakkabroq mantiqiy vazifalarni hal etish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, dalillar asosida xulosa chiqarish va o‘z fikrini asoslash qobiliyatini rivojlantiradilar. Interfaol metodlar, bahs-munozaralar, loyiha ishlari, intellektual o‘yinlar, matematik va mantiqiy masalalar ularning tafakkurini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu davrda bolalarda abstrakt fikrlash faol rivojlanadi.

O‘rta maktab yoshida mantiqiy tafakkurni samarali rivojlantirishning asosiy usullari quyidagilardan iborat:

1. Muammoli ta’lim: Darsda tayyor yechimni bermasdan, muammoli vaziyat yaratish va o‘quvchini yechim izlashga majbur qilish.

2. Sokratcha muloqot: Savol-javoblar orqali o‘quvchini o‘z fikridagi qarama-qarshiliklarni topishga va mantiqiy xulosaga kelishga o‘rgatish.

3. Debat va munozaralar: Muayyan mavzu bo‘yicha qarama-qarshi tomonlar argumentlarini tahlil qilish hamda o‘z pozitsiyasini mantiqiy asoslash.

4. Strategik o‘yinlar: Shaxmat, shashka kabi o‘yinlar orqali bir necha qadam oldinni rejalashtirishni shakllantirish.

5. Mantiqiy jumboqlar: Sudoku, rebuslar, krossvordlar va matematik boshqotirmalarni muntazam yechib borish.

6. Matematik modellashtirish: Hayotiy muammolarni matematik tenglamalar va modellar yordamida ifodalash.

7. Ijodiy hobbilarga ko‘proq vaqt ajratish. Chizish, rasm chizish, yozish va musiqa ijro etish kabi ijodiy vositalar miyani rag‘batlantirish

8. Boshqalar bilan muloqot qilish. Boshqalar bilan munosabatlarni o‘rnatish orqali nuqtayi nazari kengaytirish.

9. Qarorlaringiz natijasini oldindan bilishga harakat qilish. Qarorlaringiz kelajakda qanday ta’sir qilishi mumkinligini ko‘rib chiqish...

Kichik va o‘rta yosh davrlarida mantiqiy tafakkurni izchil rivojlantirish o‘quvchilarning intellektual salohiyatini yuksaltiradi, ta’lim samaradorligini



oshiradi hamda ularda mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Айзенк Г.Ю. Понятие и определение интеллекта// Вопросы психологии. – М.: 1995, –№ 1. –С. 111-129.
2. Айзенк Г.Ю. Интеллект: новый взгляд// Вопросы психологии. –М.: 1995.
3. Дружинин В.Н. Психологическая диагностика способностей: теоретические основы: в 2 ч. –Саратов: Изд-во Сарат. ун-та, 1990



**YANGI O‘ZBEKISTONDA MAHALLA INSTITUTI XALQARO TAJRIBA
TRANSFORMATSION JARAYONLAR**

Allanazarova Shahnoza Abdurahmonovna

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
Sanatshunoslik va Madaniyatshunoslik kafedrası
madaniyatshunoslik ixtisoslik bo‘yicha
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi Özbekistonda mahalla institutini zamonaviy islohtlash jarayonida xalqaro tajribalar va ularning qo'llanishi masalalari tahlil qilinadi. Osiyo, Yevropa va Amerikaning turli mamlakatlarida mahalla shubbha muassasalarining tuzilishi, vazifalar tizimati, demokratiklashtirish jarayoni va funksiyalarni kengaytirish modellari o'rganiladi. Maqolada xalqaro tajribalarni Özbekistonda mahalla institutini islohtlashda samarali qo'llashning ilmiy-amaliy yo'llari tavsiya etiladi.

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируются вопросы международного опыта и его применения в процессе современной реформы института махалли в Новом Узбекистане. Изучаются структуры, системы функций, процессы демократизации и модели расширения функций институтов махалли в различных странах Азии, Европы и Америки. В статье предлагаются научно-практические пути эффективного применения международного опыта в реформировании института махалли в Узбекистане.

ABSTRACT: This article analyzes the issues of international experience and its application in the process of modern reform of the mahalla institution in New Uzbekistan. The structures, functional systems, democratization processes and models of expanding the functions of mahalla institutions in various countries of Asia, Europe and America are examined. The article proposes scientific-practical ways of effectively applying international experience in reforming the mahalla institution in Uzbekistan.

KALIT SO'ZLAR: Mahalla, Yangi Özbekistan, transformatsiya, xalqaro tajribalar, demokratiklashtirish, ijtimoiy boshqaruv, iqtisodiy funksiyalar, mahalla muassasalari.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Махалля, Новый Узбекистан, трансформация, международный опыт, демократизация, социальное управление, экономические функции, институты махалли.

KEYWORDS: Mahalla, New Uzbekistan, transformation, international experience, democratization, social management, economic functions, mahalla institutions.



KIRISH

Bugungi kunda xalqaro bosqichda mahalla institutiga hamda ijtimoiy muassasalarning roli va ahamiyati toboro ortib bormoqda. Dunyo miqyosida mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari demokratik tuzilishi, samaradorligi oshirish va fuqarolarning hayotiy muammolarning hal qilishda asosiy obyektiga aylanmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida mahalla institutini islohatlari davlatning strategik yo'nalishlarda biri hisoblanadi. Ammo ushbu islohatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun faqat milliy tajriba tayyorlamasa, xalqaro tajribadan o'rganish tahlil qilish va ularning mahalliy sharoitga muvofiq qo'llash zarurdir. Dunyoning turli mamlakatlarida mahalla tuzilishi, vazifalar tizimi demokratiklashtirish jarayonlari va funksiyalarni kengaytirish yo'nalishlari va o'ziga xos xususiyatlariga ega. Bu o'ziga xosliklar mahalla institutining tarixiy rivojlanishi, turli madaniy va iqtisodiy omillar ta'sirida shakllangan bo'lib ularning to'g'ri o'rganish va tahlil qilish O'zbekistonda mahalla institutining ilmiy-amaliy asosini mustahkamlaydi. Bugungi kunda mahallani yettilik (rais hokim yordamchisi yoshlar yetakchisi xotin-qizlar faoli profilaktika inspektori soliqchi va ijtimoiy xodim) tizimi asosida transformatsiya qilishda ilg'or tajriba va xalqaro modellardan keng foydalanilmoqda. Mahalla o'zini o'zi boshqarishning xalqaro modellar va mahalla transformatsiyasida xalqaro amaliyotda turlicha shakllangan ammo O'zbekistonda uchta yirik modeldan foydalaniladi. 1-Bavariya(Germaniya) modeli-mahalliy boshqaruv va professionalizm, Germaniyaning hududiy o'zini-o'zi boshqarish tajribasi (Hanns Seidel jamg'armasi bilan hamkorlikda o'rganilayotgan Bavariya modeli) mahalla tizimining huquqiy, budjet va ijro mexanizmlarini tartibga solishda Germaniya tajribasida andoza olingan mahallalar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha maxsus qo'llanmalar va me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilmoqda. 2-Buyuk Britaniya Aqsh modeli "Community" va ijtimoiy sheriklik: G'arb davlatlarda jamoalar mahalliy muammolar davlat aralashuvisiz ijtimoiy sheriklik orqali hal qiladi. Yangi O'zbekistondagi mahallalarga "ijtimoiy shartnoma" prinsplari va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik mexanizmlari aynan shu model asosida shakllanmoqda. 3-Shvetsariya Norvegiya modeli-Desentralizatsiya ijtimoiy himoya yani bu modelda barcha ijtimoiy xizmatlar markazdan eng quyi bo'g'inga (kommunal) xizmatlar bu tizimni mahallada "ijtimoiy xodim" lavozimining joriy etilish subtsidiyalr yordam pullari aynan mahalla tarfidan ajratiladi. Xalqaro tajribaning amaliyotga qo'llanilishi 4 ta asosiy yo'nalishda joriy etiladi. 1.Raqamlashtirish: Jamubiy Korea Singapur va Estoniyaning "Aqilli shahar va jamoa" tajribasida kelib chiqib yurtimizda "Raqamli mahalla" va "Ijtimoiy mahalla" platformalari joriy etildi, natijada esa avvalgi qog'ozbozlik va korrupsiyaga sabab bo'lgan ma'lumotlar berish tizimi to'liq raqamlashtirildi. Aholining muammolari "mahallabay" tizimi orqali onlayn bazaga kiritilib, yuqori idoralarga monitoring uchun yuboriladi. 2. "Mahallabay" ishlash va Kambag'allikni qisqartirish (Xitoy va Janubiy Korea) tajribasi asosida faoliyat yuritadi. 3-Jamoatchilik nazoratati va Tashabbusli budjet: Braziliyaning Portu-Alegri shahrida muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan va hozirda butun dunyoda qo'llaniladigan "Tashabbusli budjet" modeli O'zbekistonda "Open Byudjet" (ochiq byudjet) ko'rinishida mahalla darajasida



tashkil etildi. Endilikda mahallalarda yo‘l, chiroq yoki maktab ta‘miri uchun mablag‘larni aholining o‘z ovozi berish orqali tashkillashtiriladi. Yangi O‘zbekistondagi mahalla islohotlari xalqaro hamjamiyat tomonidan ham e‘tirof etilmoqda. Samarqandda o‘tkazilgan Birinchi xalqaro konferensiya yakunlari bo‘yicha qabul qilingan Deklaratsiyaning BMT Bosh qarorgohida rasmiy hujjat sifatida tan olingani buning isbotidir. Sharqona qadriyatlarni G‘arbning ilg‘or menejment texnologiyalari bilan sintez qilish orqali mahalla bugun shunchaki ma‘muriy idoradan "Inson qadri va manfaatlarini maskani"ga aylanib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. Xususan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga bag‘ishlangan boblari.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-209-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

Ilmiy monografiya darsliklar va maqolalar:

1. Jabborov I. O‘zbeklar (An‘anaviy turmush tarzi va madaniyati). – Toshkent: Sharq, 2008. (Mahallaning etnomadaniy ildizlari qismi).
2. Liu Morgan Y. Under Solomon's Throne: Uzbek Visions of Renewal in Osh (Salamon taxti ostida: O‘sh o‘zbeklarining yangilanish qarashlari). – Pittsburgh: University of Pittsburgh Press, 2012. (Markaziy Osiyoda mahalla institutining ijtimoiy-madaniy transformatsiyasiga oid xalqaro tadqiqot).
3. Boas F. Race, Language and Culture (Irq, til va madaniyat). – New York: Macmillan, 1940. (Madaniy relyativizm va mahalliy jamoalar an‘analarini saqlash nazariyasi uchun)
4. To‘rayev Sh. Yangi O‘zbekistonda mahalla tizimi: kecha va bugun (Ijtimoiy-falsafiy tahlil). Monografiya. – Toshkent: Akademnashr, 2024.
5. Karimov M. Xalqaro tajribada mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish modellari va O‘zbekiston amaliyoti // Jamiyat va boshqaruv jurnali. – Toshkent, 2025. – № 2. – B. 45–52.



**PETRI TARMOQLARI ASOSIDAGI FORMAL TILLARNING
AMALIY VA MODEL-ALGORITMIK TA'MINOTI**

Jumanov Jamoljon Xudaykulovich

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU professori
jamoljon@mail.ru*

Mavlankulov G'ayratjan Xudayberganovich

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU ilmiy tadqiqotchisi
gairatjon@mail.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada parallel va asinxron jarayonlarni o'z ichiga olgan murakkab diskret tizimlarni formal tavsiflash va tahlil qilish uchun Petri tarmoqlari hamda formal tillar nazariyasi integratsiyasiga asoslangan matematik modellar ko'rib chiqiladi. Grammatikalarni qadamli, ko'p qadamli va maksimal parallel otilish strategiyalari orqali boshqarish mexanizmlari tadqiq etilgan. Ishlab chiqilgan algoritmlar va dasturiy majmuaning arxitekturasi hamda ularning hisoblash samaradorligini oshirishdagi o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Petri tarmoqlari, formal tillar, boshqariladigan grammatikalar, parallel hisoblashlar, stoxastik modellashtirish, dasturiy majmua.

1. KIRISH

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun'iy intellekt, bulutli hisoblashlar va ko'p yadroli tizimlarning rivojlanishi parallel hisoblash jarayonlarini formal modellashtirishni talab etadi. Klassik formal grammatikalar va avtomatlar parallel tizimlardagi resurslar almashinuvi hamda sinxronizatsiya jarayonlarini to'liq tavsiflashga ojizlik qiladi. Shu sababli, Petri tarmoqlari asosidagi dinamik boshqaruv mexanizmlarini formal tillar apparati bilan birlashtirish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi Petri tarmoqlari orqali boshqariladigan formal tillarning qat'iy matematik modelini qurish, parallel va asinxron jarayonlarni tahlil qiluvchi samarali algoritmlar va dasturiy majmuani ishlab chiqishdan iborat.

2. MUAMMONING O'RGANILGANLIK DARAJASI

Formal tillar va Petri tarmoqlari nazariyasining fundamental asoslari N. Chomsky, S. Kleene va C.A. Petri tomonidan yaratilgan. Petri tarmoqlari bilan boshqariladigan grammatikalar va tartibga solingan qayta yozish tizimlari (regulated rewriting systems) J. Dassow, Sh. Turaev, M. Kudlek va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, quyidagi masalalar yetarlicha tadqiq etilmagan edi:

- Maksimal o'tish istiqbollari (maximal firing strategies);
- Parallel qayta yozish mexanizmlari (parallel rewriting);
- Hisoblash to'liqligi (computational completeness) muammolari.

3. INTEGRATSIYALASHGAN MATEMATIK MODELLAR VA ISHLASH REJIMLARI



Klassik o‘rin/o‘tish Petri tarmoqlari multito‘plamlar algebrasi orqali quyidagicha ta’riflanadi:

$PN = \langle P, T, F, W, \mu_0 \rangle$ Bu yerda P va T mos ravishda joylar va o‘tishlar to‘plami, F yo‘llar, W og‘irlik funksiyasi va μ_0 boshlang‘ich markerlashdir. Petri tarmog‘i bilan boshqariladigan grammatika (PN-CG) doirasida parallelizmni ta’minlash uchun quyidagi operatsion operatsiyalar aniqlangan:

- **Qadamli rejim (Step mode - s):** Bir vaqtning o‘zida bir nechta o‘tishlar parallel ravishda faollashadi.
- **Ko‘p qadamli rejim (Multistep mode -m):** Bir xil o‘tish qoidasi bir qadamda bir necha marta qo‘llanilishi mumkin.
- **Maksimal qadamli rejim (Maximal Step mode - n):** Faollashishi mumkin bo‘lgan barcha o‘tishlar to‘plamining maksimal qismi bir vaqtda ishga tushadi.

4. ALGORITMIK OPTIMALLASHTIRISH VA DASTURIY MAJMUUA

Petri tarmoqlarining asosiy muammolaridan biri zanjir uzunligi ortishi bilan holatlar fazosining eksponentsial ravishda o‘sib ketishidir ($O(n \cdot |T|^2)$)

Ushbu kombinatorik muammoni hal qilish uchun stoxastik filtrlash va graflarni siqilgan holda saqlash (Compressed State Representation) usullari taklif etilgan.

Tadqiqotda ishlab chiqilgan optimallashtirilgan algoritm yordamida hisoblash murakkabligi quyidagi darajaga keltirildi:

$$O(n \cdot |T| \cdot \log |T|)$$

Yaratilgan ko‘p modulli dasturiy majmua quyidagi beshta asosiy komponentdan tashkil topgan:

Modul nomi	Funksional vazifasi
Parser moduli	Grammatika qoidalari va Petri tarmog‘i strukturasi matnini tokenizatsiya va sintaktik tahlil qiladi.
Model moduli	Markerlash dinamikasi va otilish qoidalarini operatsion semantika asosida boshqaradi.
Analyzer moduli	Invariantlarni topadi, turg‘unlik va cheklanganlikni tahlil qiladi.
Solver moduli	Parallel derivatsiya zanjirlarini quradi va dinamik konfliktlarni (<i>deadlock</i>) bartaraf etadi.
Visualizer moduli	Erishuvchanlik graflari va derivatsiya daraxtlarini 2D/3D interaktiv shaklda namoyish etadi.

5. EKSPERIMENTAL NATIJALAR VA AMALIY SAMARADORLIK

O‘tkazilgan raqamli simulyatsiyalar va hisoblash eksperimentlari quyidagilarni ko‘rsatdi:



1. **Vaqt samaradorligi:** Maksimal parallel otilish rejimi qoʻllanilganda, derivatsiya daraxtining chuqurligi oʻrtacha **34% ga qisqardi**.
2. **Xotira samaradorligi:** Siqilgan holat modellashtirish algoritmi tufayli tezkor xotiradan (RAM) foydalanish darajasi **42% ga kamaydi**.
3. **Ishonchlilik:** Konfliktlarni hal qilish algoritmlari kiritilishi natijasida tizimning boshi berk koʻchaga kirib qolish (*deadlock*) ehtimoli nolga tenglashtirildi.

XULOSA

Tadqiqot doirasida Petri tarmoqlari orqali boshqariladigan formal tillarning nazariy-uslubiy asoslari takomillashtirildi. Ishlab chiqilgan algebraik modellar va algoritmlar koʻp oqimli va taqsimlangan tizimlarning dinamik holatini yuqori aniqlikda baholash imkonini beradi. Mazkur yondashuvlarni telekommunikatsiya protokollari, kiberxavfsizlik, IoT platformalari va sunʼiy intellekt tizimlarida jarayonlarni optimallashtirish uchun qoʻllash tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Mavlankulov G., Othman M., Turaev S., Selamat M. H., Zhumabayeva L., Zhukabayeva T. Concurrently Controlled Grammars // Kybernetika. – 2018. – Vol. 54, No. 4. – Pp. 748-764
2. Djumanov J, Mavlankulov G., Mathematical Modeling of Systems and Formal Languages Controlled by Petri Nets Development of Their Algorithms and Software Package, Al-Khwarizmi Descendants: Scientific and Applied Journal. № 2. 2026. -Tashkent
3. Djumanov J, Mavlankulov G., Development of Intelligent Decision-Making Models Based on Formal Languages and Petri Nets for Complex System Assessment and Optimization, Electronic journal of Actual problems of modern science, education and training" -. -Urgench. Urgench State University. №2 July . 2026



МОДЕЛИРОВАНИЕ АСИНХРОННЫХ ЦИФРОВЫХ СИСТЕМ И АЛГОРИТМЫ АППАРАТНОГО СИНТЕЗА НА ОСНОВЕ ПАРАЛЛЕЛЬНО УПРАВЛЯЕМЫХ СЕТЕЙ ПЕТРИ

Джуманов Жамолжон Худайкулович.

Профессор ТУИТ имени Мухаммада ал-Хоразмий

jamoljon@mail.ru

Мавланкулов Гайратжан Худайбергенович

Научный исследователь ТУИТ имени Мухаммада ал-Хоразмий

gairatjon@mail.ru

Аннотация. В данной статье предлагается практическая адаптация концепции параллельно управляемых грамматических систем в область проектирования вычислительной техники и цифровых микросхем. Вместо абстрактных математических теорем формальных языков разработана прикладная инженерная модель - Параллельно Управляемые Сети Петри (ССРNM). Модель ориентирована на решение проблемы синхронизации в современных многоядерных процессорах посредством перехода к асинхронной архитектуре. Приведен детальный инженерный пример проектирования асинхронного двухканального мультиплексора, функционирующего на базе протокола Handshaking, и представлены результаты экспериментальной оценки эффективности.

Ключевые слова: параллельные вычисления, сети Петри, асинхронный синтез, микросхемы, мультитег-активация, протокол Handshaking, оптимизация логики.

1. ВВЕДЕНИЕ

С развитием наноразмерных полупроводниковых технологий проектирование современных высокопроизводительных интегральных схем сталкивается со строгими физическими ограничениями. Одной из ключевых проблем является перекосяк тактового сигнала и колоссальное энергопотребление глобальных сетей синхронизации в многоядерных чипах. В качестве альтернативы классической синхронной парадигме выступает асинхронная архитектура. В асинхронных системах управление процессами осуществляется не по глобальному таймеру, а локально, на основе событийных механизмов и протоколов подтверждения.

Для верификации и автоматизированного проектирования таких параллельных систем требуются строгие математические модели. Традиционные сети Петри предоставляют удобный базис для моделирования параллелизма, однако их классическое исполнение предполагает, что в один дискретный момент времени может сработать только один переход, либо переходы срабатывают абсолютно независимо. Это накладывает ограничения на моделирование сложных аппаратных контроллеров, где группы



транзисторов должны переключаться строго одновременно под внешним скоординированным управлением.

В исследовании [1-3] был предложен математический аппарат параллельно управляемых грамматик. Настоящая работа переносит данную теоретическую концепцию в конструкторско-технологическое русло.

2. МОДЕЛЬ ПАРАЛЛЕЛЬНО УПРАВЛЯЕМЫХ СЕТЕЙ ПЕТРИ (CCPNM)

Формально определим инженерную модель CCPNM как упорядоченную структуру, описывающую динамику распределения логических уровней (токенов) в узлах асинхронной схемы:

$$M = (P, T, \xi_1, \xi_2, \gamma, \mu_0, M_{final})$$

Где каждый компонент имеет четкую физическую и структурную интерпретацию в рамках проектируемой аппаратуры:

- $P = \{p_1, p_2, \dots, p_n\}$ — конечное множество позиций (Places), представляющих собой логические триггеры, регистры запоминания состояний или физические шины передачи сигналов.
- $T = \{t_1, t_2, \dots, t_m\}$ — конечное множество переходов (Transitions), соответствующих актам переключения транзисторных ключей, логических вентилей или логических блоков И/ИЛИ/С-элементов Маллера.
- $\xi_1, \xi_2: T \rightarrow P^\oplus$ - функции входных и выходных связей, определяющие условия активации транзисторов (предусловия) и результирующее изменение потенциалов в цепи (постусловия).
- $\gamma: T \rightarrow \Sigma \cup \{\lambda\}$ - функция маркировки, связывающая технологические переходы с конкретными управляющими командами, внешними прерываниями или флагами интерфейса.
- μ_0 и M_{final} - векторы начального стабильного и целевого завершающего состояний системы (векторы разметки токенов).

Главное отличие модели от стандартных сетей Петри заключается во внедрении двух аппаратных режимов диспетчеризации сигналов:

1. Пошаговый режим ($\rho = m$): В данный квант времени одновременно срабатывает фиксированное подмножество независимых транзисторных групп, реализуя локальный аппаратный параллелизм.
2. Максимально параллельный режим ($\rho = \hat{m}$): Срабатывает максимально возможное количество переходов в текущем состоянии. Ни один транзистор, готовый к переключению и имеющий ресурсы, не остается в режиме ожидания. Это гарантирует максимальное быстроедействие асинхронного автомата и минимизирует задержки критического пути.

3. ДВУХКАНАЛЬНЫЙ АСИНХРОННЫЙ МУЛЬТИПЛЕКСОР

Рассмотрим практическую реализацию: блок асинхронного мультиплексирования данных, управляемый двухфазным протоколом Handshaking (запрос-подтверждение). Система включает два входных канала А и В, транслирующих данные на общую шину.

Определим параметры сети Петри для данного технического узла:



• Позиции (P): $P = \{p_idle \text{ (шина свободна), } p_reqA \text{ (запрос канала A), } p_reqB \text{ (запрос канала B), } p_ackA \text{ (подтверждение A), } p_ackB \text{ (подтверждение B), } p_busy \text{ (обработка данных)}\}$.

• Переходы (T): $T = \{t_initA \text{ (активация A), } t_initB \text{ (активация B), } t_sync \text{ (одновременная фиксация данных в буфер), } t_clear \text{ (сброс циклов)}\}$.

В условиях пиковой нагрузки, когда запросы поступают синхронно по обоим каналам, классическая модель вынуждена делать случайный выбор (арбитраж), искусственно задерживая один из потоков. Модель SSPNM в режиме максимального параллелизма активирует групповой переход t_sync , позволяя буферизировать метаданные параллельно без фазы взаимного блокирования, что исключает возникновение метастабильности триггеров.

4. ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Для верификации предложенного подхода было проведено имитационное моделирование разработанных алгоритмов на тестовой архитектуре 32-битного асинхронного контроллера маршрутизации пакетов. Сравнение проводилось с классическими сетями Петри и стандартными моделями последовательного диспетчеризирования.

Метрика эффективности	Последовательная модель	Модель SSPNM (Пошаговая)	Модель SSPNM (Макс. паралл.)
Средняя задержка сигнала (нс)	45.2 нс	28.4 нс	17.9 нс
Коэффициент утилизации кремния	38.5 %	64.1 %	89.4 %
Размерность графа состояний (узлов)	14200	5600	1180

Как видно из таблицы, перевод управляющей логики на модель максимального параллелизма позволил снизить аппаратную задержку более чем в 2.5 раза по сравнению с традиционными последовательными архитектурами. Кроме того, размерность графа состояний сократилась с 14200 до 1180 узлов, что наглядно доказывает вычислительные преимущества алгоритма при проектировании СБИС.

5. ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В данной статье осуществлен успешный переход от фундаментальных математических концепций параллельно управляемых грамматических систем к прикладным инженерным задачам разработки бестактовой вычислительной техники. Разработанная модель SSPNM и алгоритмы синтеза позволяют эффективно координировать параллельные потоки данных на уровне



регистровых передач, минимизируя физические издержки чипов и устраняя состязания сигналов. Практические тесты подтвердили существенный выигрыш в производительности и скорости верификации схем. Будущие исследования авторов будут сосредоточены на интеграции данной модели в промышленные САПР для автоматического проектирования энергоэффективных нейроморфных процессоров.

БИБЛИОГРАФИЧЕСКИЙ СПИСОК

1. Mavlankulov G., Othman M., Turaev S., Selamat M. H., Zhumabayeva L., Zhukabayeva T. Concurrently Controlled Grammars // *Kybernetika*. – 2018. – Vol. 54, No. 4. – Pp. 748-764.
2. Djumanov J, Mavlankulov G., Mathematical Modeling of Systems and Formal Languages Controlled by Petri Nets Development of Their Algorithms and Software Package, *Al-Khwarizmi Descendants: Scientific and Applied Journal*. № 2. 2026. - Tashkent
3. Djumanov J, Mavlankulov G., Development of Intelligent Decision-Making Models Based on Formal Languages and Petri Nets for Complex System Assessment and Optimization, *Electronic journal of Actual problems of modern science, education and training*" -. -Urgench. Urgench State University. №2 July . 2026



БИОМЕДИЦИНА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

INTENSIV TERAPIYA FANINING AMALIY QISMINI
KASALXONALARDA TASHKIL QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Salomova Malika Faxriddinovna

Buxoro Abu Ali ibn Sino nomidagi
jamoat salomatligi texnikumi

“Hamshiralik ishi “ kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tibbiyot ta’limi tizimida intensiv terapiya fanining amaliy mashg‘ulotlarini kasalxonalarda tashkil etishning dolzarb masalalari, mavjud muammolar va ularni takomillashtirish yo‘llari tahlil qilingan. Intensiv terapiya bo‘limlarida talabalar amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, simulyatsion ta’lim va klinik mentorlikning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, amaliy mashg‘ulotlar sifatini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: intensiv terapiya, amaliy ta’lim, klinik ko‘nikmalar, simulyatsion ta’lim, tibbiy ta’lim, reanimatsiya, klinik amaliyot, hamshiralik ishi. Sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanishi zamonaviy, raqobatbardosh va yuqori malakali o‘rta tibbiyot xodimlarini tayyorlashni talab etmoqda. Ayniqsa, intensiv terapiya va reanimatsiya bo‘limlarida faoliyat yurituvchi mutaxassislar favqulodda vaziyatlarda tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qilish, zamonaviy tibbiy texnologiyalar bilan ishlash hamda bemorlarga malakali yordam ko‘rsatish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari lozim.

Intensiv terapiya fanini o‘qitishda nazariy bilimlarni amaliyot bilan uzviy bog‘lash, talabalarda klinik fikrlashni shakllantirish va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli fan amaliy qismining kasalxonalarda samarali tashkil etilishi dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Tadqiqotning maqsadi

Intensiv terapiya fanining amaliy qismini kasalxonalarda tashkil etishning mavjud holatini tahlil qilish hamda uning samaradorligini oshirishga qaratilgan takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish.

Tadqiqot materiallari va metodlari

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

- ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish;
- taqqoslash usuli;
- kuzatuv va xronometraj usuli;
- pedagogik monitoring;
- so‘rovnoma usuli;
- statistik tahlil.



Tadqiqot obyekti sifatida intensiv terapiya bo'limlari bazasida amaliyot o'tayotgan hamshiralik yo'nalishi talabalari hamda klinik amaliyot rahbarlari faoliyati o'rganildi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, intensiv terapiya fanining amaliy qismini tashkil etishda bir qator muammolar mavjud:

- amaliyot bazalarida o'quv-metodik ta'minotning yetarli emasligi;
- talabalar sonining ko'pligi sababli individual yondashuvning cheklanganligi;
- zamonaviy simulyatsion texnologiyalarning yetarli darajada qo'llanilmasligi;
- klinik mentorlar bilan hamkorlikning sustligi;
- ayrim amaliy ko'nikmalarning faqat nazariy o'zlashtirilishi.

Intensiv terapiya fanining samaradorligini oshirish uchun quyidagi takomillashtirish yo'nalishlari tavsiya etiladi:

1. Simulyatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish

Talabalar bemorga zarar yetkazmagan holda quyidagi ko'nikmalarni egallashlari mumkin:

- yurak-o'pka reanimatsiyasi;
- sun'iy nafas oldirish;
- vena kateterizatsiyasi;
- defibrillyatsiya;
- kislorod terapiyasi;
- shoshilinch yordam algoritmlari.

2. Klinik mentorlik tizimini rivojlantirish

Har bir talabaga tajribali hamshira yoki shifokor biriktirilishi:

- individual yondashuvni kuchaytiradi;
- amaliy ko'nikmalar sifatini oshiradi;
- klinik fikrlashni rivojlantiradi.

3. Kompetensiyaga asoslangan ta'limni joriy etish

Talabaning bilimini baholashda nazariy bilim bilan bir qatorda quyidagi amaliy ko'nikmalar baholanishi lozim:

- bemor holatini baholash;
- monitor kuzatuvini olib borish;
- shoshilinch holatlarda qaror qabul qilish;
- tibbiy hujjatlarni yuritish;
- jamoa bilan ishlash.

4. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish

Elektron o'quv platformalari, videodarslar va virtual simulyatorlardan foydalanish amaliy mashg'ulotlarning samaradorligini oshiradi.

5. Kasalxona va ta'lim muassasasi hamkorligini kuchaytirish

Ta'lim muassasalari va klinik bazalar o'rtasida:

- qo'shma o'quv dasturlarini ishlab chiqish;



- mahorat darslarini tashkil etish;
- muntazam monitoring olib borish;
- amaliyot sifatini baholash tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Takliflar

1. Intensiv terapiya bo'yicha simulyatsion markazlarni tashkil etish.
2. Amaliy mashg'ulotlar uchun standart algoritmlar va chek-listlarni ishlab chiqish.
3. Klinik mentorlarni tayyorlash va malakasini oshirish.
4. Talabalar amaliy ko'nikmalarini OSCE (Objective Structured Clinical Examination) usulida baholash.
5. Raqamli ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish.

Xulosa: Intensiv terapiya fanining amaliy qismini kasalxonalarda tashkil etishni takomillashtirish zamonaviy tibbiyot mutaxassislarini tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi. Simulyatsion ta'lim, klinik mentorlik, kompetensiyaga asoslangan yondashuv va ta'lim-kasalxona integratsiyasini kuchaytirish talabalar amaliy tayyorgarligi sifatini oshiradi hamda kelgusida bemorlarga ko'rsatiladigan tibbiy yordam samaradorligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. World Health Organization. Nursing and Midwifery Strategic Directions. Geneva, 2024.
2. European Resuscitation Council Guidelines for Resuscitation. 2025.
3. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining intensiv terapiya va reanimatsiya xizmatini takomillashtirishga oid me'yoriy hujjatlari.
4. G'ofurov A., Tibbiy ta'limda simulyatsion texnologiyalar. Toshkent, 2023.
5. Abdulkarimov H. Zamonaviy tibbiy ta'lim metodologiyasi. Toshkent, 2024.



КЛИНИКО-ПАТОГЕНЕТИЧЕСКИЕ ВЗАИМОСВЯЗИ ТИРЕОИДНО-ГИПОФИЗАРНОЙ ОСИ

Пардаева Махлиё Назар кизи-assistent

Тошкент давлат тиббиёт университети

nazarovna9193@gmail.com

Аннотация: Аутоиммунный тиреоидит (АИТ), или тиреоидит Хашимото, представляет собой наиболее распространённое органоспецифическое аутоиммунное заболевание щитовидной железы и одну из ведущих причин первичного гипотиреоза в йодобеспеченных регионах. В последние годы всё большее внимание уделяется не только морфологическим изменениям щитовидной железы при АИТ, но и функциональному состоянию гипофиза как центрального звена гипоталамо-гипофизарно-тиреоидной оси. Ключевые слова: аутоиммунный тиреоидит, гипофиз, ТТГ, гипотиреоз, тиреоидно-гипофизарная ось, аутоиммунный гипофизит, тиреоидит Хашимото.

Abstract: Autoimmune thyroiditis (AIT), or Hashimoto's thyroiditis, is the most common organ-specific autoimmune disease of the thyroid gland and one of the leading causes of primary hypothyroidism in iodine-sufficient regions. In recent years, increasing attention has been paid not only to the morphological changes of the thyroid gland in AIT but also to the functional state of the pituitary gland as a central component of the hypothalamic-pituitary-thyroid axis.

Keywords: autoimmune thyroiditis, pituitary gland, TSH, hypothyroidism, thyroid-pituitary axis, autoimmune hypophysitis, Hashimoto's thyroiditis.

Annotatsiya

Autoimmun tireoidit (AIT) yoki Hashimoto tireoiditi qalqonsimon bezning eng ko'p uchraydigan a'zoga xos autoimmun kasalligi bo'lib, yod bilan yetarli ta'minlangan hududlarda birlamchi gipotireozning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda AITda qalqonsimon bezdagi morfologik o'zgarishlar bilan bir qatorda, gipotalamo-gipofizar-tireoid o'qning markaziy bo'g'ini sifatida gipofiz bezining funksional holatiga ham tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

Kalit so'zlar: autoimmun tireoidit, gipofiz bezi, TTG (tireotrop gormon), gipotireoz, tireoid-gipofizar o'q, autoimmun gipofizit, Hashimoto tireoiditi.

Актуальность темы обусловлена высокой распространённостью АИТ и его существенным вкладом в структуру эндокринной патологии. По данным современных обзоров, АИТ чаще встречается у женщин, причём соотношение женщин и мужчин достигает 7–10:1, а пик выявляемости приходится на средний возраст. Болезнь нередко начинается скрыто, проходя этап эутиреоза, затем субклинического гипотиреоза и только позже переходя в клинически выраженную форму. Такое постепенное развитие заболевания делает особенно важным понимание ранних изменений тиреоидно-гипофизарной регуляции,



прежде всего динамики ТТГ и свободного Т4 . Практическая значимость темы возрастает ещё и потому, что клиницисты традиционно ориентируются на ТТГ как на главный показатель функции щитовидной железы. Однако современные представления указывают: ТТГ нельзя интерпретировать изолированно, без учёта свободных тиреоидных гормонов, клинической картины и возможной патологии гипофиза. Это особенно важно у пациентов с подозрением на центральный гипотиреоз, гипофизит, гипопитуитаризм либо при несоответствии клинических симптомов лабораторным показателям . Кроме того, аутоиммунные эндокринопатии склонны к сочетанию. АИТ может сосуществовать с другими аутоиммунными заболеваниями, включая поражение надпочечников, поджелудочной железы и, в редких случаях, гипофиза. Поэтому изучение взаимодействия АИТ и гипофиза имеет не только теоретическое, но и прикладное значение: от него зависит корректная диагностика, выбор схемы гормональной терапии и оценка риска осложнений . АИТ является хроническим воспалительным заболеванием щитовидной железы аутоиммунной природы, при котором иммунная система теряет толерантность к тиреоидным антигенам, прежде всего к тиреоидной пероксидазе и тиреоглобулину. В основе патологического процесса лежат Т-клеточно-опосредованное повреждение тиреоцитов, лимфоцитарная инфильтрация ткани железы, постепенное развитие фиброза и уменьшение функционального резерва органа. В сыворотке большинства больных выявляются антитела к тиреоидной пероксидазе, а у значительной части пациентов — антитела к тиреоглобулину . Согласно литературным данным, формирование АИТ определяется взаимодействием генетических, эпигенетических и внешнесредовых факторов. Обсуждаются роль генов HLA, CTLA-4, RTPN22, особенности инактивации X-хромосомы, влияния избытка йода, дефицита селена, перенесённых инфекций, микробиоты и курения. Такая многофакторность объясняет высокую вариабельность клинических форм АИТ: от бессимптомного носительства антител до выраженного гипотиреоза с классическими жалобами на слабость, сухость кожи, набор массы тела, зябкость, запоры, когнитивное замедление и нарушения менструального цикла . Важно подчеркнуть, что АИТ — это не только заболевание самой щитовидной железы, но и процесс, меняющий функциональную нагрузку на гипофиз. По мере снижения продукции тиреоидных гормонов компенсаторно повышается секреция ТТГ, что отражает попытку гипофиза поддержать гормональный баланс. Следовательно, изменения ТТГ при АИТ — это не просто лабораторный феномен, а показатель адаптационного ответа центрального звена эндокринной регуляции [1, 2]. Классическая модель гипоталамо-гипофизарно-тиреоидной оси предполагает, что гипоталамус выделяет тиреотропин-рилизинг-гормон, гипофиз секретирует ТТГ, а щитовидная железа под влиянием ТТГ синтезирует Т4 и Т3, которые затем по механизму отрицательной обратной связи регулируют активность гипофиза и гипоталамуса. Однако современные исследования показывают, что эта схема значительно сложнее. Между ТТГ, свободным Т4 и свободным Т3 существуют



нелинейные, зависящие от клинического контекста и индивидуальных особенностей взаимосвязи, а гипофиз выступает не просто пассивным «датчиком» уровня тиреоидных гормонов, а активным участником их гомеостатической интеграции .

Использованная литература

- [1] Klubo-Gwiedzinska J., Wartofsky L. *Hashimoto thyroiditis: an evidence-based guide to etiology, diagnosis and treatment.* 2022. URL: <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC9478900/>
- [2] Hoermann R., Midgley J.E.M., Larisch R., Dietrich J.W. *Homeostatic control of the thyroid–pituitary axis: perspectives for diagnosis and treatment.* 2015. URL: <https://www.frontiersin.org/journals/endocrinology/articles/10.3389/fendo.2015.00177/full>
- [3] Jonklaas J., Bianco A.C., Bauer A.J., et al. *Guidelines for the Treatment of Hypothyroidism: Prepared by the American Thyroid Association Task Force on Thyroid Hormone Replacement.* 2014. URL: <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC4267409/>
- [4] Bellastella G., Bizzarro A., Coronella C., et al. *The Hypothalamic–Pituitary Axis and Autoantibody Related Disorders.* 2017. URL: <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC5713291/>



МЕТАХРОМАТИК ЛЕЙКОДИСТРОФИЯ:КЛИНИК ҲОЛАТ ТАҲЛИЛИ

Бобожонов Жасур Рустам ўғли

Тиббиет ходимларининг касбий
малакасини ривожлантириш маркази
клиник ординатори
почта:jasurbobojonov1012@gmail.com

Адилова Фарангис Наъфарзода

Тиббиет ходимларининг касбий
малакасини ривожлантириш маркази
клиник ординатори

